**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO‘YICHA MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI**

**2.3.**

# “PEDAGOGNING PROFESSIONAL KOMPETENTLIGI VA MAHORATI ” MODULI BO‘YICHA

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

| | |
|---|---|
| **Malaka oshirish yo‘nalishi:** | **Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi** |
| **Tinglovchilar kontingenti:** | **Umumta’lim muassasalari jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari** |

**Toshkent – 2023**

***Modulning o‘quv uslubiy majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan 2020-yil 31-dekabrda kelishilgan holda Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan 2021-yil 4-yanvarda tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va o‘quv dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.***


**Tuzuvchi:**

A.Akmalov — JTSBMQTMOI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi professori v.b., p.f.n., dotsent

**Taqrizchilar:**

G.Yeldasheva — JTSBMQTMOI “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi dotsenti, p.f.n., dotsent

G.Karimova — PROFI UNIVERSITY xususiy olim ta’lim muassasasining “Pedagogika ba psixologiya” kafedrasi mudiri, p.f.f.d. (PhD), dotsent



***Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2022-yil 29-dekabrdagi 11-sonli qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan.***

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| I. | Ishchi dastur............................................................................................ | 4 |
| II. | Modulda foydalanilgan interfaol ta’lim metodlari…….......... | 16 |
| III. | Nazariy mashg‘ulotlar materiallari ................................................ | 29 |
| IV. | Amaliy mashg‘ulotlar materiallari ................................................. | 73 |
| V. | Keyslar banki ........................................................................... | 88 |
| VI. | Glossariy ............................................................................................ | 93 |
| VII. | Testlar ............................................................................................... | 74 |
| VIII. | Adabiyotlar ro‘yxati ........................................................................ | 109 |



# ISHCHI DASTUR

ISHCHI DASTUR

## KIRISH

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368 — sonli Farmoni, 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-sonli Qarori, 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-conli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida 2019 yil 23 avgustdagi “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchi mavqeyini oshirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor majlisi bayoni” da belgilangan ustuvor vazifalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-noyabrdagi “Sport ta’limi tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora — tadbirlari to‘g‘risida“gi PQ-5279-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021yil 14 yanvardagi “Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4954-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-sonli Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4 iyuldagi “Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 355-son qarori mazmunidan kelib chiqqan holda tayyorlangan.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarda professional kompetentlikni shakllantirish mexanizmlari bilan bog‘liq tadqiqotlarda quyidagi natijalar olingan: pedagog professional kompetensiyasining pedagogik-psixologik mezonlari aniqlangan (Moskva davlat pedagogika institutida), o‘qituvchi bilan o‘quvchi munosabatlari o‘rtasidagi o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik uyg‘unlikning ta’minlanish usullari takomillashtirilgan (The SIMEER National Research Centre at the University of England), ta’lim muhitiga nisbatan kasbiy mas’uliyatni shakllantirishda psixologik bilimlarning ta’siri aniqlangan (F.Katanova nomidagi Xakasiya davlat universiteti), pedagog professional kompetensiyasini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalar joriy etilgan hamda pedagog kompetensiyasini aniqlashning psixodiagnostika metodikalari yaratilgan (Moskva gumanitar fanlar universiteti), zamonaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi faoliyati samaradorligini ta’minlashda pedagog professional kompetensiyasining kasbiy, maxsus, shaxslilik komponentlarining ahamiyati aniqlangan (Rossiya Fundamental tadqiqotlar Fondi), o‘quvchi shaxsining shakllanishida o‘qituvchi timsolining ta’siri tadqiq etilgan (Rossiya Fanlar Akademiyasining Psixologiya instituti).

Dunyoda pedagogning professional kompetentligi va uning ilmiy-metodik ta’minotini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator, jumladan, pedagogda professional kompetentlikni shakllantirish asosida mutaxassislarning individual imkoniyatlarini takomillashtirish; pedagoglarda kasbiy, kommunikativ, intellektual kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha psixologik ilmiy izlanishlar; kasbiy kamolotni tatbiq etishda tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim; kompetentlikni rivojlantirish asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda natijalari o‘rganilgan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida jismoniy tarbiya fan o‘qituvchilari malakasini oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentligini oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ta’lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosati, ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy

hujjatlari, pedagogning professional kompetentligi va mahorati, ta'lim-tarbiya jarayoniga psixologik yondashuv, o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, amaliy xorijiy til, jismoniy tarbiyani o'qitishda innovatsion yondashuvlar, jismoniy tarbiyani o'qitish metodikasi o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy usullarini o'z ichiga oladi va ular bo'yicha tegishli yangi bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular xalq ta'limi tizimi va Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo'yiladigan malaka talablari va o'quv rejasi asosida shakllantirilgan bo'lib, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini zamonaviy ta'lim va innovatsiya texnologiyalari, ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahorati va o'quv-uslubiy faoliyatini sifatli tashkil etish kompetensiyalarini tizimli ravishda takomillashtirishni nazarda tutadi.

## Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning maqsadi:** Pedagog faoliyatining vazifalari. Pedagogning huquq va majburiyatlari. O'quv mashg'ulotiga qo'yiladigan didaktik talablar. Pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg'ulotga tayyorgarligi.

Pedagog professional kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Pedagog professional kompetentligining ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati. Pedagogning tayanch kompetensiyalari.

Pedagogning autopsixologik kompetensiyalari. Pedagog professional kompetentligini rivojlantirishning texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka hamda shaxsiy fazilatlarini takomillashtirish.

**Modulning vazifalari:**

pedagogning professional kompetentligi va mahorati yo'nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

zamonaviy talablarga mos holda ta’limning sifatini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik va mahorati darajasini oshirish;

tinglovchilarda pedagogik kompetensiyasi va mahoratidan samarali foydalanish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish;

yosh sportchi shaxsining shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar: irsiyat, muhit, tarbiya. Yosh sportchining shakllanishida irsiyatning ahamiyati. Ichki va tashqi muhitning bola shaxsida ta’siri;

tinglovchilarda sport mashg‘ulotlariga innovatsion pedagogik texnologiyalarini qo‘llash orqali bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish orqali ularning pedagogik kompetensiyasi va mahoratini rivojlantirish.

**Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

“**Pedagogning professional kompetentligi va mahorati**” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida**:**

**Tinglovchi:**

pedagogik kompetensiyasi va mahorati funksiyalari;

pedagogik texnologiyalarni turlari va qo‘llanilish sohalari;

pedagogik kompetensiyasi va mahorati doirasida yuzaga keladigan muammolar va ularni hal etish usullari;

bolalarni mashg‘ulotlar jarayonida o‘z-o‘zini boshqarish yo‘llariga ega bo‘lishi lozim.

“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati” kursini o‘zlashtirish jarayonida bilimlarga ega bo‘lishi;

**Tinglovchi:**

o‘z kasbiy faoliyat sohalarida normativ — huquqiy hujjatlar bo‘yicha xizmat ko‘rsatish;

jismoniy tarbiya va sport turlari haqidagi yangi bilimlarni shakllantirish;

bolalarni texnik va taktik jihatdan tayyorlashda pedagogik faktorlar ega bo‘lishi hamda yondashuv jihatlariga aylanishi;

“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati” modulini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini egallashi;

**Tinglovchi:**

bolalarni bilish jarayonlari nutq, muloqot, jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllanishi;

kasbiy mahorat sirlarini o‘zlashtirish hamda bolalarning jismoniy sifatlarini aniqlash, tahlil etish, baholash va umumlashtirish;

zamonaviy pedagogik konsepsiyalarga doir keyslar tuzish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladi.

“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati”moduli bo‘yicha malakalarini egallashi;

**Tinglovchi:**

zamonaviy pedagogik usullardan foydalanish va tashkil etish;

sportda ta’lim va tarbiya jarayonlarini uzviyligini ta’minlash;

ta’limiy-tarbiyaviy maslahatlar berish;

pedagogik kompetensiyasi va mahoratini, pedagogik texnologiyalarni ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish malakalarini egallashi lozim

motivlar mashg‘ulot faoliyatni samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligi haqida malakalarga ega bo‘lish kabi kompetensiyalarni egallashi lozim.

**Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi**

“Pedagogning professional kompetentligi va mahorati” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi umumiy tayyorgarlik, umumkasbiy tayyorgarlik va mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlik blokidagi o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda tinglovchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini orttirishga xizmat qiladi.

## Modulning sport ta’limidagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar pedagogning professional kompetentligi va mahoratini o‘zlashtirish, joriy etish va amaliyotda qo‘llashga doir umumiy va kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar va pedagogik mahoratini oshiradilar.

## Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

| № | Modul mavzulari | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Hammasi | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | | Mustaqil ta’lim |
| | | | Jami | jumladan | | |
| | | | | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot | |
| 1. | Pedagog faoliyatning vazifalari va pedagogning huquq, majburiyatlari | 2 | 2 | 2 | | |
| 2. | Pedagog professional kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari. | 2 | 2 | 2 | | |
| 3. | Pedagog professional kompetentligining ta’lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati | 2 | 2 | | 2 | |
| 4 | Pedagogning autopsixologik kompetensiyalari va professional kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari | 2 | 2 | | 2 | |
| | **Jami:** | **8** | **8** | **4** | **4** | |

## NAZARIY TA’LIM MAZMUNI

### 1-Mavzu. Pedagog faoliyatning vazifalari va pedagogning huquq, majburiyatlari.

**Reja:**

1. Pedagogning professional kompetentligi va uning huquq, majburiyatlari
2. Pedagogning ta’lim-tarbiya jarayoni tashkil etish va boshqarish mahorati

Pedagog faoliyatning vazifalari va huquq, majburiyatlari.O‘quv mashg‘ulotiga qo‘yilgan didaktik talablar. Pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va mashg‘ulotga tayyorgarligi. Pedagogik nazokat, samimiylik va insonparvarlik.

### 2-Mavzu. Pedagog professional kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.

**Reja:**

1. Pedagog professional kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari.
2. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati.

Pedagog professional kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati. Kasbiy kompetensiya modeli. Kasbiy kompetensiyani shakllanish bosqichlari: O‘zini — o‘zi tahlil qilish va zarur narsalarni anglash; o‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash; o‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish omillarini nazariy-metodologik asoslari.

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 3-Mavzu. Pedagog professional kompetentligining ta’lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.

**Reja:**

1. Pedagog professional kompetentligining ta’lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.
2. Pedagogning tayanch kompetensiyalari .

Pedagog professional kompetentligining ta’lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.Pedagogning tayanch kompetensiyalari. Pedagog faoliyatiga kreativ yondashuvi. O‘qituvchining ijodkorlik sifatlari. Innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyati. Pedagogning kompetensiyaviy piramidasi.

## 4-Mavzu. Pedagogning autopsixologik kompetensiyalari va professional kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari.

**Reja:**

1. Pedagogning autopsixologik kompetensiyalari.
2. Professional kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari**.**

Pedagogning o‘z hissiyotini boshqara olishi va sog‘lom shaxsni shakllantirishda tarbiya turlari, shakllari, usullari va vositalari. Didaktik, akademik, perseptiv, nutq qobiliyati, tashkilotchilik, refleksiv va empativ qobiliyatini rivojlantirish. Pedagogik xayol. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Ta’lim samaradorligini rivojlantirish qonuniyati, mexanizmi va texnologiyalari. Ta’lim jarayonida nizoli vaziyatlarni oldini olish.

## Dasturning axborot-metodik ta’minoti

Modulni o‘qitish jarayonida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik materiallar, tegishli soha bo‘yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog‘oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.



# MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

## "AQLIY HUJUM" METODI

"Aqliy hujum" (g'oyalarni ishlab chiqish) metodida ishtirokchilar birlashgan holda qiyin muammoni yechishga harakat qiladilar uni yechish uchun shaxsiy g'oyalarini ilgari suradilar.

Aqliy hujum, oldindan ularning tanqidisiz, mavzuga nisbatan erkin fikrlarni ishlab chiqishdagi harakatidir "Aqliy hujum" metodi serqirra qo'llanish xususiyatiga ega "Aqliy hujum" metodining vazifasi kichik guruhlar yordamida yangi-yangi g'oyalarni yaratishdir (kichik guruhning birgalikdagi kuchi — uning alohida a'zolarining kuchlari yig'indisidan ko'p bo'ladi). "Aqliy hujum" metodini amalga oshirish muammoni hal qilayotgan kishilarning ko'proq aqlbovar qilmaydigan va hatto fantastik g'oyalarni yaratishga undaydi. G'oyalar qancha ko'p bo'lsa, ularning hech bo'lmaganda bittasi ayni muddao bo'lishi mumkin. Bu aqliy hujum negizidagi tamoyildir. Aqliy hujum to'xtatilgandan so'ng, barcha aytilgan g'oyalar muhokama qilinib, eng maqbuli tanlanadi. Yakka tartibda yoki juftlikda, amaliy mashg'ulotlarda esa 4-7 kishidan iborat kichik guruhlarda shuningdek, guruh bo'yicha ham o'tkazish mumkin. Aqliy hujum mashg'ulotlarda ta'lim oluvchi-tinglovchilar faolligini oshirishga, charchoqni yo'qotishga, g'oyani izlashga sharoit yaratadi.

Samarali aqliy hujum uchun bosqichlar:

1. Ishtirokchilarni majburiy bo'lmagan tarzda joylashtiring.
2. Fikrlarni bayon qilish uchun qog'oz va yozuv taxtasini tayyorlang.
3. Aqliy hujumning ishtirokchilariga muammoni etkazing.
4. Ish tartibini aniqlang:

a) fikrlar tashlanganda hech qanday baholashlar bo'lmasin.

b) doimiy fikrlash ozodligi.

v) qancha aqlli fikr ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi.

g) boshqalarning fikrlarini rivojlantiring.

5. Fikrlar to'g'risida surishtiring va tezda ularni yozing.
6. Qog'oz varag'i to'ldirilganda, uni muhokama uchun qo'ying.
7. O'z g'oyalaringizni qo'shib yangi g'oyani rag'batlantiring.

8. Boshqalarning fikrini tanqid qilish yoki ustidan kulish kerak emas, kulgiga yo‘l quymang.

Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo‘llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog‘liqdir. Ta’lim jarayonida o‘qitish metodlari markaziy o‘rin egallaydi.

An’anaviy mashg‘ulot shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun mashg‘ulot jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

## “XULOSALASH” (REZYUME, VEER) METODI

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda tinglovchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

### Metodni amalga oshirish tartibi:



o‘qituvchi tinglovchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi.



Dars maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi.



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi..



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. SHundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

**Sport o‘yinlari**

| **Futbol** | | **Voleybol** | | **Basketbol** | |
|---|---|---|---|---|---|
| *afzalligi* | *kamchiligi* | *afzalligi* | *kamchiligi* | *afzalligi* | *kamchiligi* |
| • | • | • | • | • | • |
| • | • | • | • | • | • |
| • | • | • | • | • | • |
| • | • | • | • | • | • |

**Xulosa:**

## “KEYS-STADI” METODI

“Keys-stadi” – inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” –

o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.

**“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari**

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|---|---|
| **1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish** | • yakka tartibdagi audio-vizual ish;<br>• keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);<br>• axborotni umumlashtirish;<br>• axborot tahlili;<br>• muammolarni aniqlash |
| **2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshiriqni belgilash** | • individual va guruhda ishlash;<br>• muammolarni dolzarbligini aniqlash;<br>• asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| **3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish** | • individual va guruhda ishlash;<br>• muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;<br>• har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;<br>• muqobil yechimlarni tanlash |
| **4-bosqich: Keys yechimini yechishni shakllantirish va asoslash, taqdimot.** | • yakka va guruhda ishlash;<br>• muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;<br>• ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;<br>• yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

Mazkur metod dastlab 1924 yil Garvard biznes maktabida amaliy

vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini oʻrganishda foydalanish tartibida qoʻllanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari oʻz ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/Qanaqa (How), Nima-natija (What).

## "FSMU" METODI

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni oʻzlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash koʻnikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashgʻulotlarida, mustahkamlashda, oʻtilgan mavzuni soʻrashda hamda amaliy mashgʻulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

qatnashchilarga mavzuga oid boʻlgan yakuniy xulosa yoki gʻoya taklif etiladi;

har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qogʻozlarni tarqatiladi:

ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi. qilinadi.




FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

## “ASSESMENT” METODI

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali tinglovchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment”lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. SHuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

## “KEYS-STADI” METODI

«Keys-stadi» — inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

**“Keys metodi”ni amalga oshirish bosqichlari**

| **Ish bosqichlari** | **Faoliyat shakli va mazmuni** |
|---|---|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish | ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;<br>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);<br>✓ axborotni umumlashtirish;<br>✓ axborot tahlili;<br>✓ muammolarni aniqlash |
| 2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash | ✓ individual va guruhda ishlash;<br>✓ muammolarni dolzarbligini aniqlash;<br>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish | ✓ individual va guruhda ishlash;<br>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;<br>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;<br>✓ muqobil yechimlarni tanlash |

| | |
|---|---|
| 4-bosqich: Keys echimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | ✓ yakka va guruhda ishlash;<br>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;<br>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;<br>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

Jismoniy tarbiya darslarida ham interfaol metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi.

# NAZARIY MATERIALLAR

## 1-Mavzu. Pedagog faoliyatning vazifalari va pedagogning huquq, majburiyatlari.

**Reja:**

1.1. Pedagogning professional kompetentligi va uning huquq, majburiyatlari

1.2. Pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish mahorati

Jamiyat, fan va madaniyatning rivojlanishi ta’lim va tarbiya ishlarining qay yo‘sinda olib borilishiga bog‘liqdir. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Davlatning buyuk kelajagi, albatta, yoshlarni chuqur bilimli va barkamol shaxs taqdiri bilan bog‘liqligini unutmagan holda, ushbu muammoni mahoratli, bilimli pedagoglar faoliyatiga tayanib yechish mumkinligini unutmasligimiz lozim.

### 1.1. Pedagogning professional kompetentligi va uning huquq, majburiyatlari

«Ta’lim to‘g‘risida» gi Qonunda ta’lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo‘nalishlarini belgilab berdi. “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning 5-bobi, “Ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi” va 44-moddasida “Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi” Tegishli ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo‘lgan va ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, pedagogik oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o‘tganidan keyin ta’lim tashkilotlarida (bundan oliy ta’lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.

Ishlab chiqarish ta’limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o‘tmasdan professional ta’lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli.

Zarurat bo‘lganda professional ta’lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta’limi ustalarini, shuningdek tegishli bilim hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan, oliy ma’lumoti bo‘lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo‘shimcha mashg‘ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

Shuningdek, “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida (yangi tahrirda)”gi Qonunning *36-modda*sida “Tegishli ma’lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan shaxslarning jismoniy tarbiya va sport sohasida, shu jumladan davolash jismoniy tarbiyasi sohasida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yiladi” deb belgilab qo‘yilgan.

Xususan, 2018 yil 5 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi *PF-5368-sonli* Farmoni imzolandi. Ushbu Farmonda quyidagilar ommaviy sportni rivojlantirish va iste’dodli yoshlarni saralash (seleksiya) sohasida ta’lim muassasalarining ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

**Umumta’lim maktablarida** — o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jalb qilgan xolda iste’dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) xamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zaxirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sinfdan tashqari sport to‘garaklari va seksiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish (haftasiga kamida 4 soatdan) shu Farmon asosida belgilab quyilgan;

"Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida" (yangi tahrirda) gi Qonunning 29-moddasi “Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish” ga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagilar belgilab berilgan: “Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- asosiy ta’lim dasturlari doirasida davlat ta’lim standartlari bilan belgilangan hajmlarda jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha majburiy mashg‘ulotlarni, shuningdek qo‘shimcha ta’lim dasturlari doirasida qo‘shimcha (fakultativ) jismoniy mashqlar va sport mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

- ta’lim oluvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan yoshlarning jismoniy tarbiya-sport tayyorgarligi bo‘yicha tadbirlar majmuini o‘tkazish uchun sport jihozlari va anjomlari bilan ta’minlash;

- ta’lim oluvchilarda individual qobiliyatlari va sog‘lig‘i holatini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya va sport ko‘nikmalarini shakllantirish;

- o‘quv mashg‘ulotlari paytida jismoniy tarbiya tadbirlarini amalga oshirish;

- ta’lim oluvchilarning jismoniy tarbiyasi tashkil etilishi ustidan tibbiy nazorat olib borish;

- ota-onalarda yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarda bolalarining sog‘lig‘i va ularning jismoniy tarbiyasiga nisbatan mas’uliyatli munosabatni shakllantirish;

- bolalar va yoshlarning jismoniy tayyorgarligini hamda jismoniy rivojlanishini har yili monitoring qilish;

- ta’lim oluvchilar ishtirokida sport tadbirlarini, shu jumladan xalq ta’limi tizimining ta’lim muassasalari o‘quvchilari («Umid nihollari»), o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari o‘quvchilari («Barkamol avlod») hamda oliy ta’lim muassasalari talabalari («Universiada») ishtirokida uch bosqichli sport musobaqalari tashkil etilishi va o‘tkazilishiga ko‘maklashish”.

**Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi faoliyatining maqsad va vazifalari.**

“Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida (yangi tahrirda)”gi Qonunning *Z-moddi*sida quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

**jismoniy tarbiya** — madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lgan qismi;

**jismoniy tarbiyalash** — yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni

tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayon;

**jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri tashkilotchisi** — oʻz tashabbusi bilan jismoniy tarbiya yoki sport tadbiri oʻtkazayotgan va (yoki) bunday tadbirni tayyorlash hamda oʻtkazishni tashkiliy, moliyaviy va moddiy jihatdan ta'minlashni amalga oshirayotgan yuridik yoki jismoniy shaxs;

**Quyidagilar jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi faoliyatining asosiy *maqsadi* hisoblanadi:**

- bolalarga sportga muhabbatni singdirish;
- oʻsib kelayotgan avlodda sport bilan shugʻullanish, sogʻlom turmush tarzini olib borish, jismoniy va ma'naviy komillikka intilish muhimligi tushunchasini shakllantirish;
- bolalarni salbiy ta'sirlardan himoya qilishga va zararli odatlardan xalos etishga doir chora-tadbirlar majmuini amalga oshiradi.

**Quyidagilar jismoniy tarbiya fani oʻqituvchisi faoliyatining asosiy *vazifalari* hisoblanadi:**

- bolalarni jismoniy tarbiyalashning zamonaviy shakllari xamda usullarini;
- bolalarning jinsi va yoshiga qarab ularga sport koʻnikmalarini singdirishning;
- sportga qobiliyatli bolalarni ixtisoslashtirilgan sport ta'lim muassasalarida oʻqitish uchun tanlab olishning ilmiy asoslangan tizimlarini ishlab chiqishni xamda joriy etishga koʻmaklashishni tashkil etadi.

**Jismoniy tarbiya oʻqituvchisining asosiy vazifasi** hisoblangan mashgʻulotlarni tashkil etish va oʻtkazish Davlat talablari (oʻquv reja, dastur, darslik va qoʻllanma) asosida belgilanadi.

O‘quv mashg‘ulotlari ta’lim-tarbiya ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim:

1. Mashg‘ulot qat’iy jadval bo‘yicha belgilangan aniq muddatda olib borilishi kerak.

2. Mashg‘ulot o‘qituvchi rahbarligida butun guruh bilan va alohida o‘quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi.

3. Mashg‘ulot o‘quv dasturi mazmuniga qarab turli metod va vositalarda olib boriladi va ta’lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim va ko‘nikma beradi va navbatdagi bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

**Dars –** ta’limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bo‘lishi, bilimlar mustahkam o‘zlashtirilishi va amaliy ko‘nikmalar shakllanishi o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda tashkil etilishi mashg‘ulot oldiga qator didaktik talablarni qo‘yadi.

**Jumladan:**

1. Har bir dars aniq maqsadni ko‘zlagan holda puxta rejalashtirilmog‘i lozim. Bu jarayonda jismoniy tarbiya o‘qituvchisi darsning ta’limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadini belgilaydi.

2. Mashg‘ulot bosqichlarini to‘g‘ri taqsimlay olish lozim. Ya’ni mashg‘ulotni qanday boshlash, uni o‘tkazish va qanday tamomlash oldindan hal qilib olinishi kerak.

3. Mashg‘ulot o‘tiladigan joy sanitar-gigienik talablarga javob berishi kerak.

4. Har bir o‘quvchi texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilishi shart.

5. Har bir mashg‘ulot mavzuga mos ravishda o‘quvchilar soni va yoshiga mos ravishda kerakli vositalar bilan jihozlanmog‘i lozim.

6. Har bir mashg‘ulot aniq g‘oyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo‘lishi lozim. O‘qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda tarbiya metodlaridan samarali foydalanmog‘i lozim.

7. Har bir mashg‘ulot xarakteriga mos usul, shakl va vositalardan samarali foydalanilgan holda tashkil etilishi lozim.

8.Mashg‘ulot uchun ajratilgan soat va daqiqalarni tejash va unumli foydalanish darkor.

9. Dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘zaro faol munosabatda bo‘lishi lozim.

10. Mashg‘ulotlar butun guruh bilan va har bir o‘quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e’tiborga olingan holda olib borilish kerak.

11. Mashg‘ulotning mazmuni va xarakteriga qarab xalqimizning boy ma’naviy merosidan va ma’naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

Oldimizda turgan dolzarb vazifa — mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma’naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ya’ni ta’lim-tarbiya berishning noyob tizimi — “o‘zbek modeli”ni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqozo etadi.

## 1.2. Pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish mahorati

**Mahorat –** arab tilida “mohirlik”, “ustalik”, “epchillik” ma’nolarini anglatadi.

Mahorat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Tegishli fanlar va boshqa matnli manbalarni o‘qib-o‘rganish, axborot kommunikatsion texnologiyalar va atrofdagi insonlardan ko‘rib-eshitib o‘rganish hamda hayotiy tajribalar jarayonida orttirilgan bilimlar majmuini, tegishli vositalar va usullar yordamida, kasbiy-shaxsiy faoliyatga mohirlik, ustalik, epchillik bilan san’atkorona qo‘llashga aytiladi.

### Mahoratli pedagog bo‘lishning faoliyat yo‘nalishlari.

**1.** ***O‘quv pedagogik faoliyat yo‘nalishi.*** O‘qituvchi ta’lim yo‘nalishidagi qonunlarni, Respublika Prezidenti farmonlari va qarorlarini, Hukumati qarorlarini, Xalq ta’limi vazirligi va Jismoniy tarbiya va sport vazirligining me’yoriy hujjatlarini, jismoniy tarbiya fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va yondosh fanlar asoslaridan yetarli darajada bilimlarni uzluksiz ravishda o‘qib o‘rganishlari talab etiladi.

**2.** ***Shaxsiy faoliyat yo‘nalishi.*** Bu yo‘nalishda o‘qituvchi o‘zining kasbiy-

shaxsiy faoliyatiga, hamkasblariga, o‘quvchilariga va ularning ota-onalariga munosabatining loyiqligi va munosibligi ustida tinimsiz izlanishda bo‘lishi, yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklarining oldini olish va yutuqlarini oshirib borish ustida doimiy tanqidiy ijodiy izlanishda bo‘lmog‘i lozim.

**3.** ***Ijtimoiy pedagogik faoliyat yo‘nalishi***. Bunda o‘qituvchi ta’lim oluvchilar jamoasini his eta olishi, ularning tuyg‘ularini anglashi, qiziqish va ehtiyojlari, duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarini oldindan bilib olishi;

- har bir ta’lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini bilishi;

- ta’lim-tarbiya jarayonida har bir ta’lim oluvchining erishgan yutuq va yo‘l qo‘ygan kamchiliklarini doimiy o‘rganib borish, yutuqlarni rivojlantirish va kamchiliklarni tuzatishga kreativ yondashishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi lozim;

- dars va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni loyihalashni bilishi, bu loyihalarni ta’lim-tarbiyaviy jarayonga mohirlik bilan tatbiq etishga doir bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi;

- o‘quvchilarda fan, hayot, san’at, ijtimoiy foydali mehnatga qiziqish uyg‘ota olishni bilishlari talab etiladi.

4. ***Axborot-kommunikativ faoliyat yo‘nalishi***. Ayni davrda axborotlar oqimi ijtimoiy hayotiga ekspontenta (ko‘chkisiman) qonunlari asosida, shiddatli tezlikda kirib kelmoqda va keng ko‘lamni qamrab olmoqda. Axborotlarni tezkor sur’atda qabul qilib olish, ularni o‘qib-o‘rganish, tahlil etish, qayta ishlash, nazariy jihatdan umumlashtirish, xulosalash hamda o‘quvchilarga etkazib berishni yo‘lga qo‘yish ta’lim beruvchi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi axborot kommunikatsion texnologiyalari vositalari yordamida kasbiy-shaxsiy faoliyatiga tegishli axborotlarni to‘plashi, ularni saralashi va bu ma’lumotlardan o‘z o‘rnida va me’yorida oqilona foydalanish malakasiga ega bo‘lishi talab etiladi.

**Pedagogik mahorat** yaxlit tizim sifatida quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo‘ladi.

pedagog shaxsini **insonparvarlik** yo‘nalishiga ega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsad-barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltirilganligi;

**kasbiy bilimlar**, ya’ni mutaxassislik fanlari, o‘qitish metodikasi, pedagogika-psixologiyadan mukammal bilimga ega bo‘lish;

**pedagogik qobiliyat**ga ega bo‘lish (muloqotga moyillik, ishchanlik, kelajakni tasavvur qila olish, kasbiy mustaqillik, sensor axborotlarni tezlik bilan anglash (yuzidan o‘qib olish);

**pedagogik texnika**ni egallash, ya’ni o‘z-o‘zini boshqara olish, o‘zaro ta’sir etish va hamkorlikda ishlashni uddalash.

**Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari**




Pedagogik mahorat o‘ziga bolalar haqidagi, ularning psixologiyasi to‘g‘risidagi, maktab haqidagi, ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o‘z ishining chinakam ustasi bo‘la olmaydi, yomon, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andozalarni ishlatishdan nariga o‘tmaydi.

Biroq, zamonaviy jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisiga birgina umumiy madaniyatning o‘zi kifoya qilmaydi. Maxsus bilimlar va malakalar – bolalarni kuzatish, ularning o‘sishdagi muhim narsalarni aniqlay olish, ularni rivojlantirish yo‘llari va usullarini aniqlash, turli o‘zaro ta’sirini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo‘ladi.

Pedagogik takt talablariga amal qilgan jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarga o‘zida demokratik muloqot uslubini shakllantirishi, o‘quvchilar bilan haqiqiy muloqot madaniyatiga erishishi mumkin.

**Takt** so‘zini aynan ma’nosi tegib turish, daxldor bo‘lish demakdir. U odamlar

o‘rtasidagi munosabatlarini saqlab turuvchi axloqiy toifadir.

Insoniylik prinsipiga asoslangan holda taktli axloq – eng murakkab holatlarda ham inson hurmatini oqlashni talab etadi.

**Pedagogik nazokat (takt)** – bu o‘qituvchining o‘quvchiga ta’sir etishi pedagogik jihatdan muvofiqlik o‘lchovi, eng samarali muloqot uslub o‘rnatishiga bog‘liqdir.

Taktli (odobli) bo‘lish-har bir inson, ayniqsa kamol topayotgan yoshlar bilan ishlaydigan pedagoglar uchun muhim axloqiy talabdir. Pedagogik takt jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining professional sifati, pedagogik mahoratining muhim qismidir. Pedagogik taktning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, u faqat jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi shaxsi xususiyatini (xushmuomalalik, o‘quvchini sevish, hurmat qilish) anglash, balki o‘quvchi ko‘ngliga to‘g‘ri yo‘l topa olishini ham bildiradi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik faoliyatining huquqiy asoslarini izohlab bering?
2. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun qachon qabul qilingan?
3. Ta’lim to‘g‘risidagi Qonunda necha bob, nechta moddadan iborat?
4. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi faoliyatining maqsad va vazifalari qanday?
5. Darsga qanday didaktik talablar qo‘yiladi?
6. Pedagogik faoliyatni tashkil etish yuzasidan tushuncha bering?
7. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalari ayting?
8. Mahorat va pedagogik mahorat tushunchalari farqlab bering?
9. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari qanday?

## FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.

2.Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. pod. red. Popova V.V., Kruglova YU.G.-3-e izd.-M.: “BINOM. Laboratoriya znaniy”, 2012.-319 s.

3.Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.-279 b.

# 2-MAVZU. PEDAGOG PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.

## REJA:

1. Pedagog professional kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.
2. Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati.

**Tayanch iboralar:**.

## 2.1. Pedagog professional kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari

Dunyoda pedagogning professional kompetentligi va uning ilmiy-metodik ta’minotini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator, jumladan,

- pedagogda professional kompetentlikni shakllantirish asosida mutaxassislarning individual imkoniyatlarini takomillashtirish;
- pedagoglarda kasbiy, kommunikativ, intellektual kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha psixologik ilmiy izlanishlar;
- kasbiy kamolotni tatbiq etishda tadqiqotga yo‘naltirilgan ta’lim;
- kompetentlikni rivojlantirish asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kasbiy mahorat, professionalizm, xususan, pedagog-o‘qituvchilar professional xususiyatlarining rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar hozirgi kungacha bir qator mamlakatimiz va xorij olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlarning predmetiga aylangan.

O‘zbekistonda pedagog faoliyati xususiyatlarini har tomonlama o‘rganishga qaratilgan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Pedagog professional faoliyatining psixologik muammolari mamlakatimiz olimlari M. Davletshin, E. G‘oziev, V. Tokareva, R. Gaynutdinov, A. Jabborov, Z. Nishonova, D. Muxamedova, Y. Asadov, A. Rasulov, S. Sirliev, Sh. Abdullaeva va boshqalar tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Jumladan, *A. Jabborov* o‘qituvchining psixologik va etnopsixologik xususiyatlarini tadqiq etgan bo‘lsa, *R. Gaynutdinov* uzluksiz ta’lim tizimida o‘zbek milliy maktabi o‘qituvchisi shaxsi shakllanishi xususiyatlarini yoritib bergan. *Y. Asadov* o‘qituvchining individual-psixologik

xususiyatlari uning professionalizmini oshirish omili ekanligini o‘z tadqiqotlarida isbotlagan.

Pedagog kasbiy muhim sifatlarining psixologik tahlili Yu. Kulyutkin, F. Golobolin, V. Slastenin va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Pedagog professional kompetentligi muammosi bilan shug‘ullangan *Sh. Abdullayeva* (2019) tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi ilmiy yangiliklarni qo‘lga kiritgan:

- pedagogning professional kompetentligini belgilovchi predmetli-faoliyatlilik komponenti (faoliyatni erkin tanlashga intilish, insonlar bilan ishlashga yo‘nalganlik, o‘zga kishilar uchun o‘zini safarbar etish, natijalar uchun to‘siqlarni bartaraf etish va mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, muvaffaqiyatga intilish, tavakkal qilishga tayyorlik, yangilik yaratishga intilish), shaxslilik komponenti (sodir bo‘ladigan voqea-hodisalarga javob berish, o‘zga kishilarni qo‘llab-quvvatlash va ko‘maklashishga qobiliyatlilik, emotsional holatlarini nazorat qilish), ijtimoiy-kommunikativlik komponenti (muloqotdagi qayishqoqlik, tolerantlik, muomalada o‘zini nazorat qilish malakasini rivojlanganligi) aniqlangan;

- pedagogda professional kompetentlikning shakllanishi unda noaniqlikka tolerantlikni, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini, o‘zini omadli shaxs ekanligi haqidagi tasavvurini rivojlanishiga hamda rigidlikni, xavotirlanish va innovatsion faoliyatga nisbatan qarshiliklarni pasayishiga olib kelishi asoslangan;

- pedagog professional kompetentligining professional-faoliyatli ong, “Men-pedagog” konsepsiyasining professional jihatdan aniqligi, faoliyatni amalga oshirishga axborot va vositalar bilan tayyorlik kabi tarkibiy tuzilmalari aniqlangan;

- sintezlovchi refleksiyaga qobiliyatlilik, faoliyatni loyihalash va amalga oshirishga qobiliyatlilik, ijobiy “Men konsepsiyasi” pedagogda professional kompetentlikni tarkib toptirishning psixologik shart-sharoitlari ekanligi isbotlangan;

- pedagog professional kompetentligining maxsus (o‘qituvchilik faoliyati bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma, malakalar), ijtimoiy (muomalaga kirisha olish, o‘zaro ta’sir malakasi) va shaxslilik (individual va kasbiy-muhim sifatlar, emotsional barqarorlik, qiyin vaziyatlardan chiqib keta olish malakasi) komponentlari

shakllanishi o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik aniqlangan.

Shaxsning savodxonlik darajasi katta hajmdagi akademik bilimlarni egallash bilan emas, kompetentli yondashuvga ko‘ra o‘z bilimlaridan amalda samarali foydalana olish qobiliyatiga qarab baholanadi. Negaki, fan, texnika, ishlab chiqarish, sport va ijtimoiy munosabatlar shiddat bilan rivojlanib borayotgan ayni davrda axborot (bilimlar) shu darajada ko‘pki ularning hammasini o‘zlashtirishga inson qodir emas.

***Pedagogik maqsad***ning o‘ziga xosligini quyidagilarda bilish mumkin:

**1.** Pedagogik faoliyatning maqsadi jamiyat tomonidan belgilanadi, ya’ni jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi faoliyatining natijasi jamiyat manfaatlari bilan bog‘liqdir. Uning mehnati yoshlar shaxsini har tomonlama kamol toptirishga yo‘naltirilgan. Pedagogik faoliyat avlodning ijtimoiy uzviyligi (ketma-ketligi)ni ta’minlaydi. Bir avlod tajribasini, ikkinchi avlodga o‘tkazadi, ijtimoiy tajriba orttirish uchun insondagi tabiiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqaradi.

**2.** Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi faoliyati doimo shaxs faoliyatini boshqarish bilan bog‘liq. Bunda pedagogik maqsad o‘quvchi maqsadiga aylanishi muhimdir. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi o‘z faoliyati maqsadini va unga erishish yo‘llarini aniq tasavvur qilishi va bu maqsadga erishish o‘quvchilar uchun ham ahamiyatli ekanligini ularga anglata olishi zarur. Gyote ta’kidlaganidek: “Ishonch bilan gapir, ana shunda so‘z ham, tinglovchilarni mahliyo qilish ham o‘z-o‘zidan kelaveradi”.

**3.** Pedagogik (ta’lim-tarbiya) jarayonida o‘quvchi faoliyatini boshqarish shuning uchun ham murakkabki – jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi maqsadi doimo o‘quvchi kelajagi tomon yo‘naltirilgan bo‘ladi. Buni anglagan holda, mohir jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari o‘z faoliyatini mantig‘ini o‘quvchilar ehtiyojlariga muvofiq holda loyihalaydilar. Hamkorlik pedagogikasining tub mohiyati ham ana shundan iborat.

***Pedagogik faoliyatning o‘ziga xosligi*** quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o‘zining alohida xususiyatlari, ro‘y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o‘zicha baho beradigan takrorlanmaydigan faol mavjudotdir. Psixologiyada ta’kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o‘z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo‘lgan ishtirokchisi hamdir.

2. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi doimo o‘sib-o‘zgarib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashuvga bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisidan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi.

3. Tarbiyalanuvchilarga jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisidan tashqari, atrof muhit, ota-ona, umumta’lim muassasalaridagi tarbiyachilar, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy hayot ham ta’sir etadi. SHuning uchun ham jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi mehnati bir vaqtning o‘zida jamiki ta’sirlarga va o‘quvchilarning o‘zida paydo bo‘lgan fikrlarga tuzatishlar kiritib borishni nazarda tutadi.

## Pedagogik texnologiyalar – professional kompetentligini rivojlanishini nazariy-ilmiy asosi sifatida.

Pedagogikaga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davrda pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim amaliyoti va nazariyasi ilmidan mustahkam o‘rin egalladi, lekin u pedagogikaning mukammal lug‘atlari (tezaurus)dagi o‘rni hali aniq bo‘lmay qolmoqda. Pedagogik texnologiya tushunchasining shakllanishi va rivojlanishi tarixida turli qarashlar mavjud bo‘lgan: u texnik vositalar haqidagi ta’limot deb hamda o‘qitish jarayonini loyihalashtirilgan holda izchil va muntazam tashkil etish deb talqin qilingan.

Pedagogik texnologiyalar ta’riflariga bo‘lgan turli yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, haqiqatdan ham o‘qitish texnologiyalari fan va ishlab chiqarish hamda o‘quv-pedagogik jarayon oralig‘idan o‘rin oladi. Bu kasbiy didaktik tayyorgarlik tizimidagi bilimlarning mustaqil sohasi bo‘lib, u o‘qitishning didaktika nazariyasi

va amaliyoti bilan chambarchas bog‘langan. U o‘quv faoliyatini boshqarish jarayonini loyihalash va konstruksiyalash funksiyalarini o‘zida qamrab oladi.

O‘qitish texnologiyasi tarkibiga o‘quv jarayonini boshqarishning aniq usullari, boshqarish va o‘qitishning ayni istiqbolli tadbirlari haqidagi ham nazariy, ham amaliy bilimlar kiritiladi. O‘quv jarayonining borishi sharoitlariga mos ravishda ularning izchilligi belgilanadi.

Ta’kidlash lozimki, “pedagogik texnologiya” va “pedagogik tizim” aksariyat hollarda o‘zaro aloqador hodisa. Zero, pedagogik jarayon dinamik tarzda rivojlanuvchi, boshqariladigan jarayon sifatida texnologik munosabatlarni tashkil etadi. “Texnologiya” so‘zi turli aspektlarda ishlatiladi. Masalan, “pedagogik texnologiya” tushunchasiga bunga bir qancha ta’riflarni keltirish mumkin:

“Texnologiya” tushunchasi yunoncha “Texnos” (techne) va “logos” (logos) so‘zlaridan tashkil topgan bo‘lib, “hunar fani”ni o‘rganish degan ma’noni anglatadi.

Bu tushuncha texnik taraqqiyot mazmunini ifodalashga xizmat qiluvchi tushuncha sifatida ilk marta 1872 yilda qo‘llanilgan. “Texnologiya” tushunchasi bugungi kunda mazmun va mohiyatiga ko‘ra quyidagi holatlarni ifodalash maqsadida qo‘llanilmoqda:

**Texnologiya** – san’at, mahorat, ko‘nikma, metodlar yig‘indisi, muayyan holatni o‘zgartirishga xizmat qiluvchi jarayon; inson faoliyati va tafakkuri bilan bog‘lash bo‘lgan madaniy tushuncha; texnik jihatdan ahamiyatli sifat va qobiliyatning intellektual qayta ishlanishi; qandaydir jarayonni amalga oshirish metodlari haqidagi bilimlar yig‘indisi; amaliyotga joriy qilinishi talab etilayotgan ma’lum bir pedagogik tizim loyihasi.

“Zamonaviy texnologik jarayon” deganda zarur vosita va sharoitlardan foydalanilgan holda ma’lum operatsiyalarni muayyan ketma-ketlikda bajarishga yo‘naltirilgan faoliyat tushuniladi. Aniqroq qilib aytganda, mehnat qurollari va predmetlari vositasida bosqichma-bosqich ta’sir etish orqali tayyor mahsulot yaratishga yo‘naltirilgan faoliyat tushuniladi.

Ana shu ta’rifni tadqiqot mavzusiga ko‘chiradigan bo‘lsa **pedagogik texnologiya** – o‘qituvchi(pedagog)ning **ta’lim-tarbiya vositalari** yordamida tahsil oluvchilarga muayyan **sharoitlarda tizimli** ta’sir ko‘rsatishi va bu faoliyat mahsuli sifatida **ularda jamiyat** uchun zarur bo‘lgan va oldindan belgilangan **ijtimoiy** sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi *ijtimoiy hodisadir*, degan g‘oya ifoda etiladi.

**Texnologiya** – bu metodlar yig‘indisini qayta ishlash, mavjud holatni o‘zgartirish mahorat san’ati.

**Texnologiya** – bu texnik ahamiyatli ishlanmalarni o‘zlashtirish va tatbiq qobiliyati.

**Texnologiya** – bu o‘quv jarayonlariga maqsadli, tashkiliy, mo‘ljalli pedagogik ta’sir etish vositasi.

**Texnologiya** – ta’lim natijalariga rejali muvaffaqiyat kafolatlangan uslub.

Ko‘rib turganimizdek, pedagogik texnologiya xususidagi qarashlar yakdilligi bilan mushtarak xulosalarni beradi. U ma’lum maqsad natijaviy samaradorligiga qaratilganligi bilan pedagogikadagi muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik fan rivojini ta’minlashdagi zamonaviy yondashuvlar **pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish** pedagog olimlarning diqqat markazida turibdi. Ta’lim texnologiyasi pedagogik tizimning asosida shakllanadi va rivojlanadi va uning sifat darajasini bugungi zamon ehtiyojlari asosida tashkil etish davr talabiga aylanmoqda. Chunonchi, shu o‘rinda texnologiya nazariya bilan amaliyotni bog‘lovchi bo‘g‘in sifatida xizmat qiladi. Texnologiyasiz alohida pedagogik fanlar amaliyotning tarkibiga aylanmaydi.

**P**edagogik texnologiyani ta’lim jarayoniga tadbig‘ining keng quloch yoyishi biroz qiyin kechmoqda, buning sababi, birinchidan, pedagogik texnologiyaning nazariy asoslari ancha murakkabligi bo‘lsa, ikkinchidan, pedagogik olimlar va o‘qituvchilarni sinergetikaning majmualar nazariyasini to‘la egallab olmaganligida deb tushuntirish mumkin. majmualar nazariyasini to‘liq bilmagan kishi, pedagogik texnologiyaning mazmun va mohiyatiga tushunib etmaydi. Shu kundagi sinergetik dunyoqarash va uning tarkibiy qismi bo‘lgan, butun borliqqa majmui sifatida

yondashuv tamoyilini bilmay turib, pedagogik texnologiyani amaliyotga singdirib bo‘lmaydi.

**Pedagogik texnologiya** – bu ta’lim jarayonlarida shaxs kamolotini maksimal darajada rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan va tanlangan ta’sir ko‘rsatish vositalarining xususiyati. U pedagog va o‘quvchi shaxsi alohida munosabatlarning keng qamrovli, individual uslublar hosilasi.

Ta’limda “texnologiya” iborasi pedagogik fan muomalasiga mutaxassislarning o‘quvchiga ta’sir ko‘rsatishni san’at darajasida e’tirof etish bilan boshlanadi. Ya’ni “texnos” san’at, mahorat, “logos” ta’limot. Pedagogik texnologiya o‘quvchiga ta’sir etuvchi pedagoglar mahoratining professional tizimini ifoda qiladi.

**Pedagogik texnologiya** – bu nafaqat texnika – texnologiyadan iborat, balki ta’lim jarayonlarini optimallashtirishga qaratilgan yondashuvlarning tahliliy materiallar, yangi samarali konstruksiyalar, uslublarning talablarga hozirjavobligi turkum elementlar yig‘indisi sifatida pedagogik texnologiyani tashkil etadi.

Shunday qilib, pedagogik texnologiya o‘quv jarayonlarini tashkil etish va maqsadga erishishni boshqarish kabi savollarga javob berishga qaratiladi. Jumladan,

- yangi texnologiyani joriy etishda mavjud texnologiya xususiyatini aniqlash;
- texnologiyaning maqsadini belgilash;
- sifat ko‘rsatkichlari va talablari;
- belgilangan talab va maqsadlarga erishishni talab etuvchi mexanizm tamoyillarini shakllantirish;
- parametr va muvozanatni belgilovchi texnologik jarayonning strukturasi;
- texnologik xarita va chizmalarni belgilash;
- texnologiyaning rag‘batlantiruvchi funksiyalarini belgilash;
- psixologik, fiziologik, texnik va boshqa resurslarni taqsimlash tamoyilini ishlab chiqish;

Tarbiyalanuvchiga ta’sir ko‘rsatish bir qancha parametrlarni talab qiladi. Jumladan, ratsional-psixologik holat umum ma’naviy daraja va yoshi, munosabatlarning shakllanishi, ma’naviy va intellektual rivoji. Bu parametrlar

ta’lim oluvchining obyektni vujudga keltiradi. Aniqlangan obyektga nisbat subyekt ta’siri tanlanadi.

**Pedagogik texnologiyaning asosi:**

1. Tarbiyalanuvchi (o‘quvchi, talaba)ga hurmat bilan qarashning amaliy muvofiqligi;
2. Pedagogik ta’sirning maqsadli va mantiqiy asoslanishi;
3. Har bir ishning oxiriga yetkazilishi.

**Pedagogik mahorat:**

1. Psixologik-pedagogik eruditsiya;
2. Kasbiy mahorat;
3. Pedagogik texnika.

**Pedagogik texnologiya turlari:**

1. O‘rgatish va namoyish qilishga qaratilgan ta’lim texnologiyasi u maxsus umumta’lim fanlarni o‘rgatishga doir faoliyat turlari haqida ma’lumot beradi.
2. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyasi u shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.
3. Ta’limni rivojlantirishga qaratilgan texnologiya bo‘lib, u ta’lim oluvchining shaxsini rivojlantirishga qaratilgan vosita va uslublardan iborat.

Pedagogik texnologiyani boshqa ta’lim usullaridan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardir.

**Birinchidan**, avval ham bir necha bor ta’kidlaganimizdek, pedagogik texnologiya sinergetika dunyoqarashdan kelib chiquvchi obyektiv narsa va hodisalarga majmua yondashuv tamoyili asosida yaratilgan. Avvalgi pedagogik usullar, tuzilishi jihatidan erkin bo‘lib, dars tarkibini belgilash o‘qituvchi ixtiyorida bo‘lgan.

**Ikkinchidan**, pedagogik texnologiyada oldindan belgilangan asosiy maqsadga erishish kafolatlangan. Boshqa barcha pedagogik usullarda ta’lim-tarbiya

faoliyatining kafolatlangan natijasi mavjud bo‘lmay, stixiyali natijalar bilan kifoyalanib kelingan.

**Uchinchidan**, pedagogik texnologiyada, asosiy maqsadga erishish bosqichma-bosqich amalga oshirilib, har bir bosqichda oldinga qo‘yilgan maqsadlar, bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar va talab qilinadigan vositalar hamda usul va uslublarning aniq modullari hosil qilinadi. Boshqa pedagogik usullarda ta’lim-tarbiya jarayonining yakunida umumiy maqsad qo‘yilib, unga erishish yo‘llari o‘qituvchining ixtiyoriga havola qilingan.

**To‘rtinchidan**, pedagogik texnologiya universal xususiyatga ega bo‘lib, uni har bir mutaxassis, a’lo bo‘lmasa hamki, yaxshi amalga oshira oladi. Darsning intensivligiga va samaradorligiga, pedagogning mahorati va shaxsiy sifatlari deyarli ta’sir etmaydi.

O‘quvchi shaxsiga doimo ijobiy-axloqiy ta’sir ko‘rsata oladigan kishigina haqiqiy pedagogdir. Bunga erishish uchun jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi o‘zining axloqiy sifatlarini doimo takomillashtirib borishi zarur.

Ayrim jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilari kasbiy mahorat sirlarini egallash uchun, avvalo ta’lim-tarbiya metodlarini takomillashtirishga intiladilar. Bu tabiiy hol, chunki aynan metodlar yordamida jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi o‘z tarbiyalanuvchilarini jismoniy tarbiya faoliyatiga jalb qiladi. Shu bilan birga o‘quvchilarni bilim olishga qiziqtirishda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi tomonidan tanlangan metodlar, usullar va topshiriqlardan boshqa sabablar ham ta’sir etadi. Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi faoliyatining muvaffaqiyatli kechishi uning shaxsi, xarakteri, o‘quvchilar bilan muomalasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Odatda bularning ta’lim-tarbiya jarayoniga ta’siri ahamiyatsizdek tuyuladi. Ammo tajribali jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi, uning xatti-harakati o‘quvchilarga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligiga ahamiyat berib, unga kerakli tuzatishlar kiritib, takomillashtirib boradi. Shuning uchun ham pedagogik mahoratni jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi shaxsi sifatlarini majmui sifatida qaralib, uni jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi yuqori darajada psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lishini unutmaslik lozim.

Pedagog professional kompetentligining **maxsus**, **ijtimoiy** va **shaxslilik-tipologik** komponentlari o‘rtasida korreksion aloqadorlik mavjud bo‘lib, mazkur komponentlarning mutanosibligi ***professional kompetentlilik shakllanishida*** muhim rol o‘ynaydi.

***Pedagog professional kompetentligining*** tarkibiy komponentlariga uning *motivatsiyasi, individual-tipologik xususiyatlari, emotsional barqarorligi, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari, yangiliklarni qabul qila olish va moslashish imkoniyatlari, kutilmagan vaziyatlarda o‘zini boshqara olishi va vaziyatdan chiqa olish qobiliyati* kiradi.

Bo‘lajak va faoliyat yuritayotgan ***pedagoglarda professional kompetentlikning*** maxsus, ijtimoiy va shaxslilik komponentlarini o‘rganish mazkur komponentlar geoteroxron ravishda rivojlanishini ko‘rsatdi, bunda maxsus komponentning nisbatan yuqori ko‘rsatkichlarida ijtimoiy va shaxslilik komponentlari past ko‘rsatkichlarga ega ekanligi namoyon bo‘ldi.

Mazkur holatga shakllantiruvchi korreksion tadbirlarda alohida e’tibor qaratish lozim.

## 2.2.Kompetentlik va kompetensiya tushunchasi va mohiyati.

Hozirgi zamonda ilmiy texnik taraqqiyot shu darajaga rivojlandiki, natijada insonlarning ish o‘rniga ega bo‘lishga ehtiyoji barcha davrlardagidan ortib ketdi. Ilmiy texnik taraqqiyotning misli ko‘rilmagan rivoji, o‘z navbatida yuqori darajadagi intellektual qobiliyatga ega bo‘lgan kadrlarni talab etmoqda. Bunday kadrlarni tayyorlash har bir mamlakat ta’limining samaradorligi, unda faoliyat ko‘rsatayotgan pedagoglarning kompetentligi, o‘z o‘rniga loyiqligi, munosibligi bilan bevosita bog‘langan. Masalan, Fillandiyada o‘quvchilar individual reja asosida ishlashadi. Ularning rejasi e’lon qilinadi. Ushbu reja bo‘yicha ishlash qo‘lidan kelmaydigan o‘qituvchilar o‘zini o‘zi yopadi, ya’ni ishsiz qoladi. Yaponiyada har o‘n yilda o‘qituvchilar imtihon qilinadi, undan o‘ta olmaganlar bu kasbda

ishlamaydi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimi pedagoglari o‘zlarining ustida tinimsiz ishlash orqali, zamon taraqqiyotiga mos kompetentliklarini, ijtimoiy nufuz va mavqelarini saqlab turishadi.

**Pedagogning kompetensiyasi** Mehnat bozorining o‘zgarib borishi, taraqqiyot jadallashuvi, axborot muhiti globallashishi ta’sirida maktab bitiruvchisiga qo‘yilayotgan talablar murakkablashib boraveradi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy maktab o‘z faoliyatini tashkil etishda nafaqat bugungi davr talablarini inobatga olishi, balki ta’lim oluvchilarni ertangi kun talablariga ham tayyorlashi zarur.

Albatta, XXI asrning ikkinchi yarmida hayot qanday kechishi, qanday bilimlar kerak bo‘lishini shiddat bilan rivojlanib, o‘zgarib borayotgan zamonda aniq prognoz qilish qiyin. Shu bois maktab ta’lim oluvchilariga bilim berish bilan birga, ularda mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish, tez kirishuvchalik xususiyatlarini shakllantirib, har qanday o‘zgarishlarga konstruktiv moslasha olish qobiliyatini rivojlantirib borish lozim.

Oldimizda turgan bu dolzarb vazifa mustaqil hayotiy pozitsiya, ijtimoiy faollik, yuksak aqliy va ma’naviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni hayotga yanada kengroq tatbiq etishni taqozo etadi.

Buning uchun jismoniy tarbiya va sport ta’limi muassasalarida faoliyat olib borayotgan har bir jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi o‘ta muhim jarayondir.

“***Kompetensiya***” tushunchasi lotincha **competence** degan so‘zdan olingan bo‘lib, ***mos kelmoq*** ma’nosini beradi.

**Kompetensiya** – olingan nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, malaka va shaxsiy fazilatlar majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish layoqati.

**Kompetentlik** (lotincha “competence” – “layoqatli”, “qobiliyatli”) deganda shaxs

bilim, ko‘nikma va tajribalarining ijtimoiy-professional mavqeyi va o‘ziga tegishli vazifalarni bajarish, muammolarni hal qilishga qodirligi hamda haqiqiy moslik darajasi tushuniladi.

**Kompetentlik** – ***aniq vaziyatda kompetentni namoyon qilish hisoblanadi.*** Kompetentlik tarkibiga mustaqillik, tashabbuskorlik, hamkorlik, vaziyatni real baholay olish, mantiqiy fikrlash, axborotni saralash va undan oqilona foydalanish xususiyatlari ham kiradi. Demak, kompetensiyaviy yondashuv bilim, ko‘nikma va malakani inkor etmagan holda, egallangan bilimlarni amalda qo‘llay olish qobiliyatini rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi.

**Kasbiy kompetensiya** – kasbiy faoliyatga oid masalalarni amaliy tajriba, bilim va ko‘nikmaga tayanib muvaffaqiyatli hal eta olishga qaratilgan faoliyat.

Boshqacha qilib aytganda, ***kompetensiya*** – zarur (ko‘zlangan) natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan faoliyat.

Tushuncha va tasavvurlar shaklidagi insonning bilish faoliyatining tuzilmasidan farqli o‘laroq, kompetensiya faoliyat jarayonida namoyon bo‘ladi va aniqlanadi.

Amalda ***kompetentlik*** – bilim mahsuli bo‘lib, amaliyotda qo‘llay bilish qobiliyati.

Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, amaliy faoliyatsiz namoyon bo‘lmaydi va uni baholay olish mumkin emas.

Kompetentlikning asosiy mezoni (kriteriya) turli holatlarda, shu bilan birga asabiy vaziyatlarda ham, o‘zini tuta bilishning namoyon bo‘lishidir. Uning tasodifiy muvaffaqiyatli qo‘llanilishi hisobga kirmaydi.

Yana bir bor ta’kidlash joizki, “kompetentlik” va “kompetensiya” o‘zgaruvchan vaziyat va holatlarda barqaror natijaga erishishdir. Shuningdek, kompetensiya, bilimdan farqli, vaziyatga bog‘liq emas.

Ta’lim tizimini isloh qilish jarayonlarida amalga oshirilayotgan o‘zgartirishlar va yangiliklar asosida jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarga belgilanayotgan *zamonaviy talablar*:

- ta’lim va bolalar to‘g‘risidagi Hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini tushunib etadigan hamda targ‘ibot qiladigan;
- jismoniy tarbiya sohasini chuqur biladigan, pedagogik jarayonlarda o‘quvchilarning subyektivligini va faolligini oshirishga alohida ahamiyat qaratadigan;
- o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslangan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan;
- pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, o‘quvchilar va jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi hamkorligini shakllantirish va muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlarda motivlashtirish, refleksiy faoliyat jarayonlarini tashkil etish asosida refleksiv ta’limiy muhitni shakllantirish yo‘nalishlarida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan o‘qituvchi shaxsini shakllantirishni taqozo etadi.

Pedagogik jarayonlarni tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini barqaror rivojlantirishda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining faoliyati samaradorligi asosan ularning pedagogik jarayonlari va ularni tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi tushunchalari, bilimi, ko‘nikma va malakalari darajasiga hamda ularning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy amaliyotga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlari shuningdek qobiliyatlari, mahorati va kasbiy tajribasiga bog‘liq bo‘ladi.

Chunki jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi shaxsi pedagogik jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish hamda o‘quvchilarning jismoniy tarbiya faoliyatini muvofiqlashtirishga boshqaruvchi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi pedagogik jarayonlarni ham boshqaruvchisi, ham ishtirokchisi sifatida tegishli ma’lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish zaruriyati bejiz belgilanmagan.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslangan holda aytish mumkinki, jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanishi, kasbiy ahamiyatga ega

bo‘lgan shaxsiy sifatlarga ega bo‘lishi, ixtiyoriy vaziyatlarda o‘z-o‘zini nazorat qila olishi, shuningdek, sport ta’lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e’tiborga olgan holda faoliyat olib borishi, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me’yoriy mezonlarga asoslanishi zarur bo‘lib, bular jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

Demak, kompetentlik ta’lim muassasasi jismoniy tarbiya-o‘qituvchilarining ma’naviy dunyoqarashi, psixologik-pedagogik va tashkiliy texnologik salohiyati, ya’ni uning kasbiy imkoniyatlari salohiyatini ifodalaydi. Mazkur salohiyatni ta’lim muassasasi jismoniy tarbiya o‘qituvchilari pedagogik faoliyati jarayonini o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular tomonidan tashkil etilayotgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlash mumkin bo‘ladi.

Shunday ekan, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishda kompetentlik pedagogning individual qobiliyatlari va malakasi, o‘zini o‘zi rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek zamonaviy talablar asosida tashkil etilgan pedagogik jarayonlarning holati va samaradorligi orqali aniqlanadi.

Kompetentli pedagog ta’lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish yo‘nalishida zaruriy tushunchalarga ega bo‘lgan, yosh davrlar psixologiyasini yaxshi biladigan,boy va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan, ta’lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq eta oladigan, tegishli ma’lumoti va kasbiy tayyorgarligi bor, yuksak pedagogik mahorat va boy kasbiy tajribaga ega bo‘lgan pedagogik shaxsni ifodalaydi.

Kompetensiyani 4 turga bo‘lishi mumkin: kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus (1-rasm).




**1-rasm. Kompetensiya turlari**

**Shaxsiy kompetensiya:**

- insonparvarlik;
- bolalarni sevishi va mehribonlik;
- adolatli bo‘lish;
- talabchanlik;
- bag‘rikenglik;
- mas’uliyatlilik va hokazo.

**Kasbiy kompetensiya:**

- ta’lim berish va o‘rganish uchun sharoit yaratish;
- tegishli sport turi uslubiyotini takomillashtirish;
- axborot texnologiyalarini qo‘llay olish;
- ta’lim jarayonini boshqarish;
- o‘quvchilar bilimi va yutuqlarini obyektiv baholash;
- o‘quvchilarda motivatsiya uyg‘otish va ularni qo‘llab-quvvatlash;
- o‘quvchini shaxs sifatida hurmat qilish va uning yutuqlarini tan olish;
- pedagogika va psixologiyani bilish;
- o‘z bilimini doimiy takomillashtirish va hokazo.

**Umummadaniy kompetensiya:**

- kasbiy etika va estetikaga rioya qilish;
- madaniyatli bo‘lish;
- umuminsoniy qadriyatlarga egalik;
- mamlakatning ijtimoiy hayotida ishtirok etish;
- boshqa millatlarning madaniyatini hurmat qilish va hokazo.

**Maxsus kompetensiya:**

-sport turining nazariyasini bilish;

-sport turining tarixi va rivojlanish bosqichlarini bilish;

-sport turining texnikasini o‘quvchilarga o‘rgatish;

-sport turining taktikasini o‘rgatish va hokazo.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari pedagogik jarayonlarini tashkil etish va uni boshqarishda innovatsion yondashuvlarga asoslanish, kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish, ixtiyoriy vaziyatlarda o‘z-o‘zini nazorat qila olish, shuningdek, ta’lim muassasasida hukm suruvchi tarbiyaviy munosabatlarni e’tiborga olgan holda faoliyat olib borish, turli xil masalalarni va muammolarni hal etishda mavjud huquqiy-me’yoriy mezonlarga asoslanish zarur bo‘lib, bular Pedagogning kasbiy kompetentligini ifodalaydi.

**Kasbiy kompetensiya modeli.** Mutaxassisning kasbiy kompetentligi – uning kasbiy tayyorgarligi va kasbiy yetuklikligini baholovchi me’yor.

Kasbiy kompetentlik tushunchasiga nisbatan ilmiy doirada turli munosabatlar ilgari suriladi. U mehnat subyektiga nisbatan aniq faoliyat talablari yoki aynan, subyektning aniq faoliyatning o‘ziga xos jihatlariga nisbatan munosabatini tavsiflovchi xususiyat sifatida qo‘llaniladi. Masalan, tadqiqotchi olim E.F. Zero kasbiy kompetentlikning funksional taraqqiyotini tadqiq qilish kasbiy kamolotga erishish chog‘ida kompetentlikning turli ko‘rinishlari integratsiyalashib borishini va ularning kasbiy muhim shaxs sifatlari bilan aloqasi kuchayib borishini ko‘rsatdi.Xususan, kasbiy kompetentlikning asosiy darajalariga kasbiy tayyorgarlik va tajriba, o‘zini o‘zi anglash, o‘z kuchiga ishonish, o‘zga insonlar tomonidan

ko‘rsatilgan kamchiliklarni to‘g‘ri qabul qilish va shu kabi boshqa kasbiy kamolotni belgilab beruvchi shaxs xususiyatlarini kiritadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni tahlili pedagogning kasbiy kompetentligini shaxsiy, ijtimoiy, kreativ, metodik kompetentlik kabi qator o‘ziga xos xususiyatlar majmuasi sifatida to‘liq izohlanishiga imkon beradi.

**Shaxsiy kompetentlik** – shaxsning ijtimoiy dunyoqarashi, ilmiy va intellektual salohiyati, kreativligi, shaxslararo muloqot- munosabatlariga faol kirisha olishi, konfliktlarni hal etishga taktik yondashuvi, kasbiy faoliyat talablariga muvofiq shaxsiy va kasbiy sifatlarining shakllanganlik darajasi, faol hayotiy va fuqarolik pozitsiyasining qaror topganligi kabi mezonlar bilan belgilanadi.

**Metodik kompetentlik** - o‘quv-tarbiya va boshqaruv jarayonlarini samarali tashkil etishning shakl, metod va vositalarini bilish, o‘zlashtirish, amalda qo‘llash, kasbiy faoliyat natijalarini kvalifikatsiyalik tahlil eta olish, ilg‘or pedagogik va xalqaro tajribalarni o‘rganish, o‘quv-tarbiya jarayonini loyihalashtirish, muvaffaqiyatli amalga oshirish ko‘nikmalari bilan tavsiflanadi

**Kreativ kompetentlik** (inglizcha “creativity” – yaratuvchanlik, ijodkorlik) – yangilik yaratish, ijodkorlik, tashkilotchilik kabi ko‘nikmalarga ega bo‘lishdir. Kreativ kompetentlik faqat yangi g‘oyalarni yaratish uchungina emas, balki shaxsning hayot tarzi yoki ichki dunyosining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

**Informatsion kompetentlik –** zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida shaxsiy va kasbiy faoliyati bilan bog‘liq ma’lumot, axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, tanlash, qayta ishlash va zaruriy axborotlarni uzatish ko‘nikmalarining shakllanganlik darajasidir.

**Innovatsion kompetentlik –** ta’limdagi innovatsion jarayonlar mohiyatidan xabardorlik, kasbiy faoliyat sohasi va tegishli ta’lim yo‘nalishidagi innovatsiyalarni o‘zlashtirish, amaliyotga faol tatbiq etish, zamonaviy pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi savodxonlik, chet tillarni o‘zlashtirish, novatorlik faoliyatida ko‘rinadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

**Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:**

- murakkab jarayonlarda;

- noaniq vazifalarni bajarishda;

— bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanishda;

— kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda.

**Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:**

- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;

— yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;

— davr talablarini chuqur anglaydi;

- yangi bilimlarni izlab topadi; ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

**Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:**

✓ Ijtimoiy kompetentlik
✓ Shaxsiy kompetentlik
✓ Texnologik kompetentlik
✓ Maxsus (yoki kasbiy) kompetentlik
✓ Ekstremal kompetentlik

Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

**1. Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faollik koʻrsatish koʻnikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

**2. Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish boʻlib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik koʻzga tashlanadi. Ular oʻzida quyidagi mazmunni ifodalaydi: 1) psixologik kompetentlik – pedagogik jarayonda sogʻlom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni oʻz vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish; 2) metodik kompetentlik – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini toʻgʻri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qoʻllay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qoʻllash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yigʻish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, oʻrinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, oʻzining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi gʻoyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda boʻlish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir koʻrsata olish.

7). Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy oʻsishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda oʻz ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

8). Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

9). Ekstremal kompetentlik – favqulodda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Pedagogning mutaxassis sifatida: — aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish; — pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini oshirish; — izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o‘zlashtirish; — ilg‘or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo‘lish; — faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadqiq etish; — kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish; — salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo‘lida olib boradigan amaliy harakati uning o‘z ustida ishlashini ifodalaydi.

Avvalo, o‘qituvchida o‘zining kasbiy-shaxsiy faoliyatiga nisbatan kuchli ehtiyoj bo‘lishi zarur.

**Ehtiyoj atamasi** arab tilida muhtojlik, zarurat, zaruriyat, talab, hojat ma’nolarini anglatadi. Demak, o‘qituvchida pedagoglik kasbiga zarurat, zaruriyat, talab, hojat bo‘lmog‘i darkor. Ehtiyoj — insonni faollikka keltiruvchi ichki mexanizm, undovchi hisoblanadi.

Ehtiyojning muhim xususiyati uning dinamik xarakterga ega ekanligida. Chunki, biror ehtiyoj qondirilishi bilan, yana yangisi paydo bo‘ladi. Shunday ekan, o‘qituvchida kasbiy kompetentlikni yuqori darajada egallashga nisbatan, doimiy ehtiyoj bo‘lishi talab etiladi.

O‘qituvchilarda o‘z kasbiy-shaxsiy kompetentliligini rivojlantirish ehtiyoji, davlat va jamiyat ehtiyojiga mos kelishi lozim.

O‘qituvchi faoliyatida qo‘yidagi kasbiy-shaxsiy ehtiyojlar namoyon bo‘lishi mumkin:

- o‘quv pedagogik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj;
- shaxsiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj;
- ijtimoiy pedagogik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj;
- axborot-kommunikatsion faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj;
- shogirdlar, hamkasblar va el–yurt e’tirofiga erishishga bo‘lgan ehtiyoj.

Ta’limning bosh maqsadini hal etishga qaratilgan o‘quv pedagogik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj, o‘qituvchining Respublika Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar mahkamasi qarorlari, ta’limi vazirligining me’yoriy hujjatlari, mamlakatning iqtisodi va siyosatini, o‘zi o‘qitadigan fan, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika, psixologiya va yondosh fanlar asoslaridan yetarli darajada bilimlarga ega bo‘lishi va ularni amaliyotga yuqori darajada tadqiq eta olishi orqali qondiriladi.

Shaxsiy faoliyatga bo‘lgan ehtiyoj o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatiga, hamkasblariga, o‘quvchilariga va ularning ota-onalariga munosabatining loyiqligi va munosibligi ustida tinimsiz izlanishda bo‘lishi, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xato va kamchiliklarining oldini olish va yutuqlarini oshirib borish orqali qondiriladi.

O‘qituvchining ijtimoiy pedagogik faoliyatga bo‘lgan ehtiyoji, ta’lim oluvchilar jamoasini his eta olishi, ularning tuyg‘ularini anglashi, qiziqish va ehtiyojlari, duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarini oldindan bilib olishi;

- har bir ta’lim oluvchining individual psixologik xususiyatlarini bilishi;

- darsda va darsdan tashqari o‘quv-tarbiyaviy tadbirlarni loyihalash, tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi;

- o‘quvchilarda fan, hayot, san’at, ijtimoiy foydali mehnatga qiziqishni oshirish va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga yuqori darajada tadqiq eta olishi orqali qondiriladi.

Axborot-kommunikatsion faoliyatga bo‘lgan ehtiyoji, o‘qituvchining AKT vositalari bilan yetarli darajada ta’minlanganligi, ular yordamida tegishli

axborotlarni to‘plashi, saralashi va zarur paytda ulardan o‘z o‘rnida va me’yorida, yuqori darajada samarali foydalana olishi orqali qondiriladi.

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo‘lishda, **o‘z ustida uzluksiz ishlash, o‘zni-o‘zi rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchidan kasbiy-shaxsiy faoliyati yo‘nalishi bo‘yicha **o‘z ustida ishlashi** irodaviy zo‘r berish, aqliy va jismoniy zo‘riqishni yengib o‘tishni talab etadigan individual psixologik xususiyatdan iborat.

**O‘z ustida ishlash** quyidagilarda ko‘rinadi:

- kasbiy bilim, ko‘nikma va malakani takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- yangidan-yangi g‘oyalarni o‘zlashtirish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirish;
- muayyan shaxsiy dunyoqarashni shakllantirish.

**Pedagogning o‘z ustida ishlashi qo‘yidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:**

1) amalga oshirilgan pedagogik faoliyatini tahlil qilish, yo‘l qo‘yilgan xato

2) kamchiliklarni va yutuqlarni aniqlash asosida tegishli qarorlar qabul qilish;

2)qabul qilingan qarorlarga muvofiq, pedagogik faoliyat davomida yo‘l qo‘yilgan xato kamchiliklarni takrorlamaslik, yangilarining oldini olish va ijodkorlik bilan o‘z yutuqlarini rivojlantirib borish;

3)qabul qilingan qarorning doimiy bajarilishi yuzasidan shaxsiy nazoratni o‘rnatish.

**O‘zini-o‘zi tahlil qilish** o‘qituvchi o‘zining amalga oshirgan kasbiy-shaxsiy faoliyatini tahlil qilish asosida ro‘y bergan xato-kamchiliklarni va yutuqlarni aniqlashdan iborat jarayon. O‘zini-o‘zi tahlil qilish orqali, pedagog o‘zini- o‘zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

**O‘zini-o‘zi baholash** – o‘qituvchining amalga oshirgan faoliyatini divergent tahlil qilishi, uni konvergent fikrlar asosida, to‘g‘ri xulosalar chiqarishga olib keladi, ya’ni o‘zining pedagogik faoliyatini obyektiv baholash

imkonini beradi.

O‘qituvchining o‘z pedagogik faoliyatini to‘g‘ri baholashi, uni kasbiy-shaxsiy faoliyatda muvaffaqiyatlar tomon etaklaydi.

O‘qituvchining o‘z kasbiy-shaxsiy faoliyatini noto‘g‘ri, ya’ni past yoki yuqori baholashi, uni loqaydlikka, tanazzuliga olib keladi.

Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi, pedagogning ham o‘zini-o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

**O‘zini-o‘zi samarali baholash omillari:**

1)o‘zini tushunish va o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish;

2)shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini, o‘zining kasbiy-shaxsiy faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarini to‘g‘ri aniqlash;

3)o‘zining o‘qituvchilik faoliyatini tahlil qilish asosida o‘ziga bergan bahosining, unga nisbatan tashqaridan berilayotgan baholarga mos kelishi o‘ta muhim ahamiyatga ega;

O‘zini-o‘zi to‘g‘ri baholashi o‘qituvchini yangi muvaffaqiyatli marralar sari etaklaydi, yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan, xato kamchiliklardan asraydi.

Xulosa qilib aytganda o‘qituvchining kasbiy kompetentligi uning yuqori darajadagi o‘quv pedagogik faoliyati, o‘zining egallab turgan o‘rniga, hamkasblariga, o‘quvchilariga va ularning ota-onalariga bo‘lgan munosabatida, ijtimoiy pedagogik faoliyatida va axborotlarni to‘plash, ularni saralab o‘zni-o‘zi obyektiv baholashi, kasbiy-shaxsiy faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishi, nufuzi va ijtimoiy mavqeyi oshib borishining asosiy omili hisoblanadi va me’yorida foydalanishida namoyon bo‘ladi.

**NAZORAT SAVOLLARI**



1. Kompetentlik nazariyasi va uning bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Kompetensiyalar nima?
3. Kompetentlik nima?
4. Pedagog kompetensiyasi haqida nimalar bilasiz?
5. Kasbiy kompetensiyaga ta’rif bering.

**FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR RO‘YXATI**


1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: “O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi” nashriyoti. 2006.

2.Kreativnaya pedagogika. Metodologiya, teoriya, praktika. pod. red. Popova V.V., Kruglova YU.G.-3-e izd.-M.: “BINOM. Laboratoriya znaniy”, 2012.-319 s.

3.Ishmuxamedov R.J., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.- T.: “Nihol” nashriyoti, 2013, 2016.-279 b.


# AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

## 3-Mavzu. Pedagog professional kompetentligining ta’lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.

**Reja:**

1. Pedagog professional kompetentligining ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.
2. Pedagogning tayanch kompetensiyalari .

**Tayanch tushunchalar:** Pedagog professional kompetentligining ta’lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.Pedagogning tayanch kompetensiyalari. Pedagog faoliyatiga kreativ yondashuvi. O‘qituvchining ijodkorlik sifatlari. Innovatsion jarayon: pedagog va uning faoliyati. Pedagogning kompetensiyaviy piramidasi.

### 1. Pedagog professional kompetentligining ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.

**Mashg‘ulotning borishi**

**I.** Mashg‘ulotda **“Aqliy hujum”** metodidan foydalaniladi.

**“Aqliy hujum”** savoli:

1. Professional kompetentlik nima?

Javoblar tinglanadi va xulosalanadi.

**II. “Pinboard” metodi o‘tkaziladi.**

“Pinboard metodi” — vazifalarni hal etish bo‘yicha g‘oyalarni tizimlashtirish va guruhlashtirish va yagona nuqtai nazarni ishlab chiqish imkonini beradi. Ta’lim beruvchi tomonidan berilgan vazifalarni hal etish bo‘yicha ta’lim oluvchilarga o‘z nuqtai-nazarini ifodalashni taklif etadi. Pinboard metodidan yangi mavzu bo‘yicha birlamchi bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanamiz.

Metodni qo‘yidagicha qo‘llash tavsiya etiladi: ta’lim oluvchilarni rangli kartochkalar yordamida kichik guruhlarga ajratiladi va vazifalar beriladi. Guruhlarga vazifalarni bajarishlari uchun rangli kartochkalar va markerlar tarqatiladi. Berilgan vazifani kichik guruh a’zolari kelishilgan holda qog‘ozlarga

yozib boradi. Guruhdan bitta ishtirokchi yozadi, qolgan ishtirokchilar vazifa javoblarini aytib turadi. Har bir fikr alohida bitta qog‘ozga yoziladi. Keyingi fikr yana bir boshqa rangli kartochkaga yoziladi. Shu tariqa, nechta fikr bo‘lsa, shuncha rangli kartochka ishlatiladi. Vazifani bajarishga 5 daqiqa vaqt beriladi. Vazifa bajarib bo‘lgandan keyin, rangli kartochkalar magnitlar yordamida doskaga mahkamlanadi va taqdimot qilinadi. Taqdimotga 3-5 daqiqadan vaqt ajratiladi. Barcha kichik guruhlar taqdimotidan keyin guruhlar bilan birgalikda bajarilgan vazifalar muhokama va tahlil qilinadi.

“Pinboard” metodi bo‘yicha kichik guruhlarga quyidagicha vazifa beriladi:

*“Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining kompetentligini shakllanishiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi?”.*

**III. Mashg‘ulotning amaliy qismida tinglovchilar kichik guruhlarga ajratilib, “FSMU” metodi qo‘llaniladi.**

Raqamli kartochkalar orqali 4 ta kichik guruhlar shakllantiriladi. Har bir kichik guruhga tarqatma materiallar beriladi.

**1-guruhga savol:**

1.Ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirishda pedagog kompetensiyasining o‘rni nimalardan iborat?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

**2-guruhga savol:**

1. Pedagogning tayanch kompetensiyalarining qanday turlarini bilasiz??

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

**3-guruhga savol:**

Jismoniy tarbiya o‘qituvchisining ijodkorlik sifatlari nimalardan iborat?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

**4-guruhga savol:**

Pedagogning kompetensiyaviy piramidasini shakllantiring?

F- fikringizni bayon eting

S- fikringizning bayoniga sabab ko‘rsating.

M- ko‘rsatilgan sababingizni isbotlab misol (dalil) keltiring.

U- fikringizni umumlashtiring.

Har bir kichik guruh berilgan savollar bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bayon etadilar. Topshiriqni bajarishga 10 daqiqa vaqt beriladi. Berilgan vaqt tugagandan so‘ng, kichik guruhlardagi topshiriq varaqalari yig‘ib olinadi. So‘ngra kichik guruhlar o‘z topshiriqlariga berilgan javobni taqdimot qilishadi. Har bir taqdimotchiga 3 daqiqadan vaqt beriladi. Har bir taqdimotdan so‘ng savol-javob orqali muhokama bo‘lib o‘tadi. Boshqa kichik guruhlar a’zolari o‘z-fikr mulohazalari orqali berilgan javoblarni to‘ldirishi yoki takliflar berishi mumkin.

Professor-o‘qituvchi esa har bir taqdimotdan so‘ng FSMU bo‘yicha berilgan savolga keltirilgan javoblarni to‘ldiradi va umumlashtiradi.

Mavzu bo‘yicha mini-ma’ruza o‘tkaziladi.

**Mini-ma’ruza matni:**

Pedagog professional kompetentligining ta’lim tarbiya jarayoni sifatini oshirishdagi ahamiyati.

Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi ta’lim muassasasi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish yo‘nalishidagi tushunchalar darajasi, uning tashkilotchilik, tadqiqotchilik, boshqaruvchilik va pedagogik qobiliyat va ko‘nikmasi, uning o‘z-o‘zini rivojlantirishga va uzluksiz mustaqil ta’lim olishga bo‘lgan moyilligi, intilishlari, shuningdek, zamonaviy talablar asosida pedagogik jarayonlarni tashkil etish, unda o‘quvchilar faolligini ta’minlash va

faoliyatini takomillashtirish imkoniyatlari orqali aniqlanadi. Demak,xar bir pedagogda pedagogning tayanch kompetensiyalari rivojlanishi muhimdir. 1.Kommunikativ kompetensiya 2. Axborot bilan ishlash 3. Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi. 4.Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi 5.Umummadaniy kompetensiyalar 6.Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasida ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslarda tashkil etish, o‘quvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish asosida pedagogik jarayonlarning sifat va samaradorligini ta’minlashda zamonaviy yondashuvlarga asoslanadigan, yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, o‘z-o‘zini va o‘z faoliyatini o‘zi tahlil qiladigan va obyektiv baholay oladigan, boy falsafiy va ma’naviy dunyoqarashga, psixologik-pedagogik va tashkiliy-texnologik salohiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, axborotlar to‘plash, tahlil qilish, obyektiv baholash, qayta ishlash va axborotlar almashtirish, pedagogik jarayonlarda vujudga kelgan muammoli vaziyatlarda ta’lim oluvchilar faolligini ta’minlash va faoliyatini muvofiqlashtirish, pedagogik jarayonlar samaradorligi va o‘quvchilar faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni oldindan aniqlash asosida ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oldindan ko‘rish ko‘nikmalariga ega bo‘lgan hamda ta’lim-tarbiya jarayoni subyektiv faoliyatini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish, muvofiqlashtirish faoliyatni ta’minlash yo‘nalishida zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lgan pedagogni kompetentlik pedagog deyishimiz mumkin.

## 2. Pedagogning tayanch kompetensiyalari .

**Pedagogning tayanch kompetensiyalari turlari!**

| № | Tushunchalar | Tushunchalarning ta’rifini bering? |
|---|---|---|
| 1. | Kommunikativ | |
| 2. | Axborot bilan ishlash | |
| 3. | Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish | |

| | | |
|---|---|---|
| 4. | Ijtimoiy faol fuqarolik | |
| 5 | Umummadaniy | |
| 6 | Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish | |

***Xulosa o‘rnida:*** Tinglovchilarga quyidagi rasm berilib, “O‘z ish faoliyatingizni, kompetentlik darajangizni o‘zingiz baholang” degan vazifa beriladi. Har bir tinglovchi o‘z fikrini aytadi .




## NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogning vazifalari.
3. Pedagogning ta’lim-tarbiya jarayonidagi faoliyati va darsga tayyorgarligi
4. Pedagogning pedagogik mahorati.
5. Kompetensiya va kompetentlik
6. Pedagog kompetensiyasining turlari
7. Ta’lim sifatini oshirishda pedagogik kompetentlilikni rivojlantirish yo‘llari.
8. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi.
9. Pedagogning shaxsiy kompetensiyasi.
10. Pedagog kompetensiyasining turlari.

## 4-PEDAGOGNING AUTOPSIXOLOGIK KOMPETENSIYALARI VA PROFESSIONAL KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

**Reja:**

1. Pedagogning autopsixologik kompetensiyalari.
2. Professional kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari**.**

**Mashg'ulotning borishi**

**1-topshiriq. Mashg'ulotda "Aqliy hujum" metodidan foydalaniladi.**

**"Aqliy hujum" savoli:**

1. Qanday tarbiya turlarini bilasiz?

Javoblar tinglanadi va muhokama qilinadi.

Mavzu bo'yicha mini-ma'ruza o'tkaziladi.

***Mini-ma'ruza matni:***

*Tarbiya turlari* – tarbiyachi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati va o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatishidir.

*Tarbiya turlarini* o'rganish, tahlil qilish, bu usullardan pedagogik jarayonda foydalanish, ko'nikma va malakalarni egallashni osonlashtirish uchun ularni shartli ravishda bir necha guruhga ajratish mumkin: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, axloqiy, huquqiy, ekologik, iqtisodiy, estetik, jismoniy kabi turlari mavjud.

**Axloqiy tarbiya.** Axloq, xulq va atvor arabcha so'z bo'lib, ular o'zbek tilida ham o'z ma'nosida ishlatiladi. Ayrim adabiyotlarda axloq kishilarning har bir jamiyatga xos xulq normalari majmui deyilsa, boshqalarida esa, ijtimoiy ong shakllaridan biri, sotsial tartib-qoida bo'lib, bu tartib-qoida ijtimoiy hayotning istisnosiz hamma sohalarida kishilarning xatti-harakatini tartibga solish funksiyasini bajaradi deyiladi.

**Huquqiy tarbiya.** Mamlakatimizda juda katta ijtimoiy – iqtisodiy o'zgarishlar ro'y berganligi, yangi jamiyat barpo etilganligi natijasida qonunchilik va huquq – tartibotni yanada mustahkamlash, fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinishini kuchaytirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.Huquqiy tarbiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi, o'quvchida mas'uliyat tuyg'usining yetarlicha rivojlanmaganligida, oilaga va jamiyatga nisbatan o'z burchini bilmaslik yoki tan olmaslik kabi urinishlarida ko'rinadi. Hozirga davrda o'quvchilar bilan huquqiy tarbiya berishning yangi shakllari qo'llanilmoqda. To'plangan ilmiy bilimlardan, pedagogik tajribalardan oqilona

foydalanish, o‘quvchilarga davlatimiz qonunlari va qoidalariga muntazam rioya qilish ko‘nikmalarini singdirish huquqiy tarbiyaning samarali amalga oshirish garovidir.

**Ekologik tarbiya.** Ekologik tarbiya insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta’lim-tarbiya umumiy ta’lim-tarbiyaning yangi shakli va tarkibiy qismi bo‘lib, ta’lim muassasalari barcha fanlarni o‘qitish amalga oshirilishi ko‘zda tutiladi. Ekologik ta’lim-tarbiyadan bosh maqsad ham yosh avlodda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iboratdir.

**Iqtisodiy tarbiya.** O‘quvchilarga o‘quv muassasasi va oila sharoitida iqtisodiy tarbiya berish ko‘pdan beri pedagogikaning asosiy muammolaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bozor iqtisodiga o‘tilayotgan bir paytda yoshlarda iqtisodiy tafakkurni tarbiyalash ayniqsa muhimdir. Iqtisodiy tarbiyani barcha maxsus fanlar orqali amalga oshirish mumkin.

**Estetik tarbiya.** Estetik tarbiya ancha keng ma’noga ega bo‘lib, shaxsni tabiat va jamiyatdagi go‘zalliklarni ideal nuqtai nazardan idrok etishga o‘rgatadi. Shuningdek, estetik faoliyatga, voqelikni go‘zallik qonun-qoidalari asosida o‘zgartirishga qobiliyatli shaxsni tarbiyalaydi.

**Jismoniy tarbiya.** Jismoniy tarbiyaning asosiy maqsadi-o‘quvchilar tanasidagi barcha a’zolarni sog‘lom o‘sishini ta’minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlashdir. O‘quvchilarning jismoniy kamolotlari uchun sharoit yaratish va pedagogik boshqarish jismoniy tarbiyaning vazifasidir. Jismoniy tarbiya tizimida jarayoni kamolot diagnostikasi muhim o‘rin tutadi. Jismoniy kamolot jismoniy tarbiya saviyasi, fan tili bilan aytganda, jismoniy tarbiya samaradorligi ko‘rsatgichidir. Agar diagnostika o‘quvchilarning yoki biror-bir o‘quvchining jismoniy va tibbiy ko‘rsatgichlari pasayib ketayotganligini ko‘rsatsa, demak, zudlik bilan jismoniy tarbiyadagi mavjud tizimni o‘zgartirish kerak.

**2-topshiriq. Mashg‘ulotda “Aqliy hujum” metodidan foydalaniladi.**

**“Aqliy hujum” savoli:**

1. Jismoniy tarbiya mashg‘uloti jarayonida Siz qanday tarbiya usullaridan foydalanasiz?

Javoblar tinglanadi va muhokama qilinadi.

Mavzu bo‘yicha mini-ma’ruza o‘tkaziladi.

**Mini-ma’ruza matni:**

Tarbiya usullari ***– bu o‘quvchilarning ongi, irodasi, tuyg‘ulari va xulqiga ta’sir etish usullaridir.***

Tarbiya maqsadi va mazmuni usullarni to‘g‘ri tanlashga imkon beradi. Maqsad qanday bo‘lsa, unga erishish usullari unga muvofiq bo‘lishi zarur.

Tarbiya usullari bu tarbiyachi va jamoa tomonidan g‘oyaviy-axloqiy e’tiqodlar, siyosiy bilimlar, his — tuyg‘u va odatlar, did, fahm -farosat, iymonni tarkib toptirish maqsadida qo‘llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish usullaridir. SHuningdek, tarbiya usullari o‘quvchining o‘z shaxsini takomillashtirishga, harakat qilishni ham nazarda tutadi.

Tarbiya usullarining quyidagi turlari mavjud:

- ✓ so‘z orqali;
- ✓ ko‘rgazmali;
- ✓ amaliy;
- ✓ namuna bo‘lish:
- ✓ rag‘batlantirish;
- ✓ jazolash.

Bu usullar axloq, odob va tarbiyaning barcha tomonlarini o‘zida mujassamlashtirgan. Xalq pedagogikasida turli xil tarbiya usullari, vositalaridan foydalanilgan. Bu usul va vositalar nihoyatda xilma — xil bo‘lib, ko‘p tomonlari bilan ilmiy pedagogikadan ustunlik qiladi. Chunki, bu usullar ilmiy pedagogikaning shakllanishida xam o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

O‘quvchilarda o‘z-o‘zini tarbiyalashni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini tarbiyalash — shaxsning o‘z psixologik sifatlari, xulqi, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari qadr-qimmati, kamchiliklarini baholay olishidir.

O‘z-o‘zini tarbiyalash orqali o‘ziga ta’sir qilishning quyidagi usullari mavjud:

- ✓ o‘z-o‘zini ishontirish;
- ✓ o‘z-o‘ziga buyruq berish;
- ✓ o‘z-o‘zini majbur qilish;
- ✓ o‘z-o‘zini rag‘batlantirish;
- ✓ o‘z-o‘zini jazolash, o‘z-o‘zini mashq qildirish.

Yuqorida keltirib o‘tilgan asosiy tarbiya usullari ta’lim-tarbiya jarayonida maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, bir vaziyatni boshqarish, o‘quvchilarga pedagogik ta’sir ko‘rsatish va to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish, jismoniy mashqlar va sportda qiyinchiliklarni yengib o‘tishga mo‘ljallangandir.

**Mini-ma’ruzadan so‘ng, “Muammoli vaziyat” metodidan foydalaniladi.**

Tinglovchilar 4 ta kichik guruhlarga ajratiladi.

Har bir guruhga o‘z ish faoliyatlarida o‘quvchilar bilan duch kelingan muammoli vaziyatlar va ularni bartaraf etishda ma’lum bir tarbiya usulidan qay ko‘rinishda foydalanishganligini tushuntirib berishlari so‘raladi.

“Muammoli vaziyat” metodi – ta’lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yechimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

“Muammoli vaziyat” metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta’lim oluvchilarning bilim darajalari va tajribalariga mos kelishi kerak. “Muammoli vaziyat” metodi qo‘llanilganda ta’lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni,

muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” metodi quyidagi bosqichlarda olib boriladi:

1. Ta’lim beruvchi tinglovchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

2. Ta’lim beruvchi tinglovchilarni 6 ta kichik guruhlarga ajratadi.

3. Kichik guruhlar berilgan o‘z faoliyatlarida duch kelingan biror muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va berilgan tarbiya usulidan qay tarzda foydalanganliklarini tushuntirib, taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

4. Barcha taqdimotdan so‘ng fikrlar jamlanadi. Guruh ta’lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatlarni yechishda tarbiya usullaridan foydalanish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

***Kichik guruhlarga topshiriqlar:***

**1-guruhga** topshiriq: “So‘z orqali” tarbiya usulidan 3-4 yoshlilar guruhi bilan bo‘ladigan faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

**2-guruhga** topshiriq: “Ko‘rgazmali” tarbiya usulidan 4-5 yoshlilar guruhi bilan bo‘ladigan faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

**3-guruhga** topshiriq: “Amaliy” tarbiya usulidan 5-6 yoshlilar guruhi bilan bo‘ladigan faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

**4-guruhga** topshiriq: “Namuna bo‘lish” tarbiya usulidan 6-7 yoshlilar guruhi bilan bo‘ladigan faoliyatingizda qanday muammoni bartaraf etishda foydalangansiz?;

**Mini-ma’ruza:** Pedagogik faoliyat jismoniy tarbiya -o‘qituvchini chuqur va puxta bilimga, pedagogik qobiliyatiga, mustahkam xarakterga, yuksak ma’naviyatga ega bo‘lishini taqozo qiladi. I.A.Sherbakov o‘qituvchi shaxsi 6 ta kasbiy- tarkibiy qismdan iborat ekanligini ta’kidlaydi:

1. Yuksak saviyadagi bilim va madaniyat
2. Yo‘nalishning aniq ifodalanganligi.
3. Yuksak axloqiy hislarning mavjudligi.
4. Yuqori darajada yuzaga keluvchi faollik va barqaror mustaqillik.
5. Qat’iy va silliq xarakter.
6. Pedagogik qobiliyatlar.

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi:

1. Didaktik qobiliyatlar.
2. Akademik qobiliyatlar.

3. Perseptiv qobiliyatlar.
4. Nutq qobiliyatlari.
5. Tashkilotchilik qobiliyati.
6. Avtoritar qobiliyatlar.
7. Kommunikativ qobiliyatlar.
8. Pedagogik xayolot.
9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati.

O'qituvchilarning pedagogik qobiliyatini tahlil qilgan N.V. Kuzmina shunday yozadi: "Ta'lim – tarbiyada ro'y beradigan ko'pgina kamchiliklar o'qituvchi o'z pedagogik qobiliyatining amaliy yo'nalishlarini yaxshi bilmasligi, iste'dodning o'qituvchida yo'qligi natijasida ro'y beradi". Maxsus qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchilar faqat o'zlari egallagan kasbiy yo'nalishlari bo'yicha muayyan faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanadilar. Biror faoliyatning muvaffaqiyatli, mustaqil va mukammal bajarilishini ta'minlaydigan noyob qobiliyatlar birikmasi talant deyiladi. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o'qituvchida layoqat, zehn va qiziqish bo'lishi kerak.

Pedagogik–psixologiyada pedagogik qobiliyatning cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin.




Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, Pedagogning pedagogik qobiliyatlarini qo'yidagicha klassifikatsiya qilish mumkin (5-rasm):

1. **<u>Didaktik qobiliyat-</u>** bu oson yo'l bilan murakkab bilimlarni o'quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda Pedagogning o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi va namoyish qilishi, o'quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'ota olishi ko'zda tutiladi. Pedagog zarurati tug'ilgan hollarda o'quv materialini o'zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

**2. <u>Akademik qobiliyat-</u>** barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo'lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo'lgan Pedagog o'z sport turi bo'yicha

bilimlar hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, oʻz sport turi sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan koʻp narsalarni oʻrganib boradi. Oʻquvchilarda maʼlum sport turi boʻyicha bilim va koʻnikmalar shakllantirish jarayonida maʼlumotlarni boshqa fanlar (fizika, anatomiya, fiziologiya, geometriya va hokazo.) bilan bogʻlay oladi.

**3. Perseptiv qobiliyat-** qisqa daqiqalarda oʻquvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu oʻquvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, oʻquvchi shaxsini va uning vaqtinchalik psixologik holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bogʻliq boʻlgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday Pedagog kichkinagina alomatlar, uncha katta boʻlmagan tashqi belgilar asosida oʻquvchi ruhiyatdagi koʻz ilgʻamas oʻzgarishlarni ham fahmlab oladi.

**4. Nutqiy qobiliyat-** ixcham, maʼnoli, ohangdor, muayyan ritm, temp, chastotaga ega boʻlgan nutq. Shuningdek, Pedagog nutqining jarangdorligi, uning pauza, mantiqiy urgʻuga rioya qilishi. Qobiliyatli Pedagogning nutqi MASHGʻULOTda hamisha oʻquvchilarga qaratilgan boʻladi. Pedagog yangi materialni tushuntirayotgan, oʻquvchining javobini tahlil qilayotgan, maʼqullayotgan yoki qoralayotgan boʻlsa ham uning nutqi hamisha oʻzining ichki kuchi, ishonchi, oʻzi gapirayotgan narsaga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Fikrlar ifodasi oʻquvchi uchun aniq, sodda, tushunarli boʻladi.

**5. Tashkilotchilik qobiliyati-** oʻquv guruhi yoki jamoani uyushtirish va uni boshqarish isteʼdodi. Tashkilotchilik oʻquvchilarni xilma-xil faoliyat turiga jalb qilish uchun asos hisoblanadi. Bu qobiliyat, birinchidan oʻquvchilar jamoasini uyushtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirish boʻlsa, ikkinchidan, oʻz faoliyatini toʻgʻri uyushtirish qobiliyatidir.

**6. Hurmatga ega boʻlishlik qobiliyati-** oʻzining shaxsiy xususiyati, bilimdonligi, aql- farosatli, mustahkam irodasi bilan obroʻ orttirish uquvchanligi. Fanda bu qobiliyat turi- avtoritar qobiliyat, deb ham yuritiladi. Hurmatga ega boʻlish Pedagog shaxsiy sifatlarning butun bir kompleksiga, chunonchi, uning ifodaviy sifatlariga ( dadilligi, chidamliligi, qatʼiyligi, talabchanligi va hokazo) shuningdek, oʻquvchilarga taʼlim hamda tarbiya berish masʼuliyatini his etishga, bu ishonchni oʻquvchilarga ham etkaza olishiga bogʻliq boʻladi.

**7. Kommunikativ qobiliyatlar-** muomala va muloqot oʻrnata olish, bolalarga kirishib ketish qobiliyati, oʻquvchilarga toʻgʻri yondashish yoʻlini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan samarali oʻzaro munosabatlar oʻrnata bilish, pedagogik nazokatning mavjudligi.

**8. Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyati-** insonning kelajagini oqilona tasavvur qilishdan iborat bashorati. Bu oʻz harakatlarning oqibatlarini oldindan koʻrishda, oʻquvchining kelgusida qanday odam boʻlishi haqidagi tasavvur bilan bogʻliq boʻlgan shaxsni tarbiyalab yetishtirishda, tarbiyalanuvchining qanday fazilatlarning taraqqiy etishini oldindan aytib bera olishda ifodalanadigan maxsus qobiliyat. Bu qobiliyat pedagogik optimizmga, tarbiyaning qudratiga, odamga ishonish bilan bogʻliq boʻladi.

**9. Diqqatni taqsimlash qobiliyati-** bir necha obyektlarga bir davrning oʻzida oʻz munosabatini bildirish. Pedagoguchun diqqatning barcha xususiyatlari- hajmi,

uning kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilina olishi va ishga solinishning taraqqiy etganligi muhimdir. Qobiliyatli, tajribali Pedagog o'z fikrini (yoki o'quvchi fikrini) bayon qilishda diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat-e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik, tushunmaslik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzilish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat o'z shaxsiy xatti-harakatlarni (mimikasi, pantomimikasi, yurish- turishni) ham kuzatib boradi.

**10. Konstruktiv qobiliyat-** o'quv- tarbiya ishlarini rejalashtirish va natijasini oldindan aytish qobiliyati. Bu qobiliyat o'quvchi shaxsning rivojini loyihalashga, o'quv- tarbiya mazmunini, shuningdek, o'quvchilar bilan ishlash metodlarini tanlab olishga imkon beradi.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o'rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg'usi va iroda sifatlarning namoyon bo'lishidan iborat ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik qobiliyatlar xarakter xislatlari bilan bog'langan. Uyushqoqlik, qat'iylik, haqqoniylik pedagogik faoliyat darajasini orttirishga olib keladi, aksincha, uyushmaganlik, ko'ngilchanlik, adolatsizlik pedagog faoliyati natijalarini pasaytiradi.

Ushbu mavzuni mustahkamlash maqsadida

**3-topshiriq. "KICHIK GURUHLARDA ISHLASH" METODIDAN FOYDALANILADI.**

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi- ta'lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o'quv materialini o'rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida "Kichik guruhlarda ishlash" metodining tuzilmasi keltirilgan.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha pedagogik qobiliyat turlari to'g'risida ma'lumot berilgan tarqatma materiallar belgilanadi.

2. 10 ta kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlarga 2-3 kishidan bo'linishlari mumkin.

Har bir kichik guruhga bittadan pedagogik qobiliyat to'g'risida ma'lumot berilgan tarqatma material beriladi.

**1-guruhga vazifa:** Didaktik qobiliyatni tushuntirib bering.

**2-guruhga vazifa:** Akademik qobiliyatni tushuntirib bering.

**3-guruhga vazifa:** Perseptiv qobiliyatni tushuntirib bering.

**4-guruhga vazifa:** Nutqiy qobiliyatni tushuntirib bering.

**5-guruhga vazifa:** Tashkilotchilik qobiliyatini tushuntirib bering.

**6-guruhga vazifa:** Hurmatga ega boʻlishlik qobiliyatini tushuntirib bering.

**7-guruhga vazifa:** Kommunikativ qobiliyatni tushuntirib bering.

**8-guruhga vazifa:** Psixologik tashxis (diagnoz) qobiliyatni tushuntirib bering.

**9-guruhga vazifa:** Diqqatni taqsimlash qobiliyatni tushuntirib bering.

**10-guruhga vazifa:** Konstruktiv qobiliyatni tushuntirib bering.

3. Kichik guruhlar vazifani bajarishga kirishadilar. Vazifani bajarishga va taqdimotga tayyorgarlikka 5 daqiqa vaqt beriladi.
4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq koʻrsatmalar beriladi va yoʻnaltirib turiladi.
5. Har bir kichik guruh 2-3 daqiqa vaqt mobaynida taqdimot qiladilar.
6. Har bir taqdimotdan soʻng savol-javoblar va muhokama boʻlib oʻtadi.

***Mavzularni xulosalash:***

Pedagogika fani va amaliyoti har doim rivojlanib borar ekan, unga muvofiq ravishda tarbiya jarayoni ham takomillashib boraveradi.

## NAZORAT SAVOLLARI

1. Pedagogik texnika.
2. Nutq texnikasi va madaniyati.
3. Pedagogik qobiliyat va uning turlari.
4. Pedagogning tarbiya jarayonidagi mahorati.
5. Tarbiyaning shaxs shakllanishidagi roli.
6. Yosh sportchi shaxsining shakllanishiga tashqi muhitning ta'siri.
7. Yosh sportchi shaxsining shakllanishida tarbiyaning roli.
8. Sport ta'lim muassasalarida tarbiya va uning turlaridan foydalanish
9. Oʻquv Mashgʻulotlari jarayoni tarbiya usullaridan foydalanish.
10. Jismoniy tarbiya darslariga qoʻyiladigan didaktik talablar.

# KEYSLAR BANKI

**1-MIKROKEYS**

Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki

natijalari bilan o‘lchanadi. SHaxs faoliyati, bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko‘riladi.

Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko‘nikma va malakalarning obyektiv, xolis baholanishini ta’minlaydi.

**Mikrokeys topshirig‘i:**

O‘qituvchilarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

**Ta’lim oluvchilarga tavsiya etiladigan manbalar:**

Innovatsiya va pedagogik innovatsiyalarga oid material va adabiyotlar.

**Ta’lim oluvchilar uchun ko‘rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Pedagogika innovatsiyalarga doir bilimlaringizni tilimlang.
3. Mavzuga oid bilimlaringizni tizimlash asosida yechimni asoslashga uring.
4. Yechimni bayon eting.

**Mikrokeysni yechish jarayoni:**

1. Ta’lim oluvchilar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Ta’lim oluvchi sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan pedagogik innovatsiyalarga doir bilimlarni tizimlarga urinadi.
3. Ta’lim oluvchi mavzuga oid bilimlarini tizimlangan holda yechimni asoslashga uring.
4. Yechim bayon etiladi.

**O‘qituvchining Yechimi**

**Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlari**

| Holat | Mezonlar |
|---|---|
| **Pedagogning innovatsion faoliyati** | 1. Yangiliklardan izchil xabardor bo‘lish.<br>2. O‘z fani bo‘yicha yangiliklarni yaratish xohishiga egalik.<br>3. O‘zlashtirgan yoki o‘zi asoslangan yangiliklarni amaliyotga tadqiq etishda qat’iyatlilik ko‘rsatish.<br>4. O‘z faoliyatida innovatsiyalarni faol qo‘llash |

## 2-MIKROKEYS

Birinchi sinfda o‘qiyotgan Zarifa matematikadan misolni birinchi va to‘g‘ri Yechgani uchun “besh” baho oldi. O‘qituvchi uni buning uchun maqtadi.

Zarifa uyga qaytgach, shoshganicha, bu xabarni oyisiga aytdi. U kundaligini olib ko‘rsataman desa,oyisi hatto qayrilib qaramadi xam.

Oyisi Zarifaning xabarini sovuqqonlik bilan tingladi va qiziga qayrilib ham qaramasdan dedi:

- Besh oldingmi? Juda soz, barakalla, — endi ovqat tayyorlashimga xalaqit bermagin-da, o‘ynab kel!

Zarifa tushlik ham qilmay ko‘chaga chiqib ketdi.

**Savollar:**

1. Vaziyatni qanday baholaysiz?

2. Zarifaning onasi tarbiyaning qaysi tamoyillariga zid ish qildi?

3. Shu kabi vaziyatlar Zarifaning tarbiyasiga qanday ta’sir o‘tkazadi.

**Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:**

“Pedagogika” va “Psixologiya”ga oid adabiyotlar.

**Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini Yetarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning Yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.

3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko‘proq daxldor bo‘lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.

4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida yechimni asoslashga uring.

5. Yechimni bayon eting.

**O‘qituvchining yechimi**

1. Zarifaning onasi tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, tarbiya jarayonida rag‘batlantirish tamoyillariga zid ish qildi.

2. Shu kabi vaziyatlar Zarifaning tarbiyasiga salbiy ta’sir o‘tkazadi, asta-sekin unda qo‘rslik, befarqlik, o‘z-o‘zini past baholash, o‘ziga va atrofdagilarga ishonmaslik kabi xislatlar shakllanadi.

## 3-MIKROKEYS

Ingliz tili darsida o‘qituvchi ta’lim oluvchilarga: “Bir-biringdan ko‘chirma!”, “O‘zing yoz, birovlarning daftariga qarama!”, “Aqllaring bor -mi o‘zi, shu oddiy narsani xam yozib berolmaysanlar-a!” singari zaharxanda so‘zlar bilan bir necha bor qattiq tanbeh berdi.

Boshqa sinfda esa o‘qituvchi darsiga yo‘l-yo‘lakay, albatta, ammo ta’sirli qilib: “Bolalar bir-biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi emas, hech kim sizlardan ko‘chirayotgani yo‘q!”, — dedi.

**Savollar:**

Ta’lim jarayonida individual nazorat topshiriqlarini har bir ta’lim oluvchi mustaqil bajarishi lozim.

1. Birinchi o‘qituvchining ta’lim oluvchilarga bu boradagi yondashuvi to‘g‘rimi? Pedagogik talabni shunday tarzda qo‘yish qanchalik to‘g‘ri?

2. Ikkinchi o‘qituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. O‘qituvchining xatti-harakatini oqlash mumkinmi?

**Tinglovchilarga tavsiya etiladigan material:**

“Pedagogik talab” va uning mohiyatini yoritishga oid materiallar. Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq daxldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.

5. Yechimni bayon eting.

**O‘qituvchining yechimi**

1. Birinchi o‘qituvchi tomonidan garchi pedagogik talab qo‘yilayotgan bo‘lsa-da, biroq, bu talabning yuqoridagi kabi ifodalash mumkin emas. Aslida o‘qituvchining yondashuvi pedagogik talabni ifodalashi lozim. Ammo qo‘pollik, qo‘rslik bilan qo‘yilgan pedagogik talab hech qanday tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi, aksincha, ta’sir ko‘rsatadi. Qolaversa, o‘qituvchining yondashuvi bilan ta’lim oluvchilarda bir-birlariga nisbatan ishonchsizlik, bir-birini hurmat qilmaslik kabi sifatlar qaror topishiga zamin yaratib beradi.

2. Bir qaraganda ikkinchi o‘qituvchi tomonidan pedagogik talab buzilmoqda. Ammo, ta’lim oluvchilarga nisbatan xayrixohlik, samimiylik ta’lim oluvchilarga aksincha ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchining o‘zlariga nisbatan xayrixohligini his etgan ta’lim oluvchilar pedagogik talabga zid ish qilmaslikka harakat qilishadi.

## 4-MIKROKEYS

Madina 2 yoshda u juda ham quvnoq, hamma bilan oson muloqotga kirishadigan, juda ko‘p she’rlar biladigan qiz. Uni bog‘chaga berishdi va bir oy davomida bola injiq, yig‘loqi, duduqlanadigan bo‘lib qoldi.

Pedagog ota-onani oldida doim qizga nisbatan xushmuomala bo‘lib, erkalatardi. Ota-ona vaziyatni surishtirsa, pedagog uyda qo‘rqib ketgan bo‘lsa kerak, deb vaziyatni yumshatishga harakat qildi. Boladan so‘ralsa, bola hech nima gapirib bera olmaydi.

**Savollar:**

1. Bu vaziyatda kim aybdor?
2. Ota-ona qanday yo‘l tutishi kerak?
3. Bolaga endi qanday munosabat bildirish kerak?

**Tinglovchilarga tavsiya etiladigan manbalar:**

“Pedagogika” va “Psixologiya”ga oid adabiyotlar.

**Tinglovchilar uchun ko‘rsatmalar:**

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi tarbiya tamoyillarini aniqlang.
3. Aniqlangan tarbiya tamoyillari orasidan muammoga barchasidan ko‘proq daxldor bo‘lgan, eng muhim tamoyil (yoki ikkita tamoyil)ni ajrating.
4. Ana shu tamoyil (tamoyillar) asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

**O‘qituvchining yechimi**

1. Pedagogning tarbiyada bolaning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olmadi va tarbiya jarayonida qattiqqo‘llik metodidan foydalandi.
2. Ota-ona bog‘cha mudirasi bilan kelishib, Madinani boshqa haqiqatan muloyim, xushfe’l pedagog guruhiga o‘tkazishi kerak.
3. Yangi pedagogga esa vaziyatni tushuntirib, Madinaga e’tiborliroq

bo‘lishni so‘rab, alohida logoped, psixolog va nevropatolog bilan ishlab Madinani bu kuchli stressdan chiqarib olish kerak

# GLOSSARIY

Glossariy

| Atama | O‘zbek tilidagi sharhi | Ingliz tilidagi sharhi |
| --- | --- | --- |
| **Anglash qobiliyati** | – o‘qituvchilarning ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyati, qonuniyatlari, talabalarning yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlari, ta’lim ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabat mazmuni, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish shartlari hamda kutiladigan natijalarni anglashga imkon beradigan individual psixologik xususiyat. | Taking into account the fact that the process of training and educating teachers depends on the work, conduct, age, psychological and personal characteristics of the requirements, the content of the relationship with the participation of teachers, the conditions for effective organization of teaching activities, as well as expected results shown psychologist. |
| **Artikulyatsiya** | (lot. “articulation” < “articulare” – “aniq talaffuz qilmoq”) nutq organ (a’zo)larining tovush hosil qilishdagi harakatlari holati. | (Lat. "articulation" <"articulare" — "to pronounce clearly") The state of movement of the organs of speech in the production of sound. |
| **Bilish qobiliyati** | o‘qituvchining ta’lim jarayonining ishtirokchilari – talabalar, ota-onalar, hamkasblar va ta’lim muassasasining rahbarlari bilan oson muloqotga kirishish, ular bilan munosabatni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga yordam beradigan individual psixologik xususiyat. | the participants of the teacher’s educational process are individual psychological traits that facilitate easy communication with students, parents, colleagues and leaders of the educational institution, helping to establish a proper relationship with them. |

| | | |
|---|---|---|
| | | |
| **Diksiya** | (lot. “diction” – “talaffuz qilish”) – so‘zlarning aniq talaffuz qilinishi. | (Lat. "diction" — "pronunciation") — the exact pronunciation of words |
| **Jest** | (gavda, qo‘l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki ob’ektga nisbatan munosabatning gavda, qo‘l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi. | (body, arm and leg movements) — the expression of the reaction to a particular event or object using body, arm and leg movements. |
| **Ijtimoiy kompetentlik** | – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish. | Ability to be active in social relations, to have skills, to be able to communicate with the subjects in professional activities |
| **Innovatsion kompetentlik** | pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish. | to promote new ideas on improving the pedagogical process, improving the quality of education, increasing the effectiveness of the educational process, their successful implementation in practice. |
| **Intuitsiya** | (lot. “intuition” < “intueri” – “sinchiklab, diqqat bilan qaramoq”) – mantiqiy bog‘lanmagan | (Lat. "intuition" <"intueri" — "to look carefully") — a heuristic (productive creative thinking) process, |

| | | |
|---|---|---|
| | yoki mantiqiy xulosaga kelish uchun etarli bo‘lmaganda qidiruv yo‘nalishlari asosida masalani echishning tarkibini bo‘lgan evrestik (unumli ijodiy fikrlash) jarayoni. | which consists of solving the problem on the basis of search directions, which are not logically connected or insufficient to reach a logical conclusion. |
| **Informatsion kompetentlik** | axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish. | search, collection, sorting, processing and purposeful, appropriate, effective use of necessary, important, necessary, useful information in the information environment |
| **Kasbiy ziyraklik** | o‘quvchilar ruhiy holatlarini, dars, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishga bo‘lgan ishtiyoqlarini to‘g‘ri baholash, ularning o‘zaro yoki pedagoglar bilan ziddiyatlarini anglash, o‘quvchi va guruhga ta’sir ko‘rsatishda qulay vaziyatini tanlay bilish. | to correctly assess the mental state of students, their desire to conduct lessons, educational activities, to understand their contradictions with each other or with teachers, to choose a favorable situation in influencing the student and the group. |
| **Kasbiy kompetentlik** | mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi. | the acquisition by a specialist of the knowledge, skills and competencies necessary for the conduct of professional activities and their application in practice at a high level. |
| **Kasbiy-** | mutaxassis sifatida o‘qituvchi tomonidan | a task that must be performed by a teacher as a |

| | | |
|---|---|---|
| **pedagogik burch** | kasbiy faoliyatda ado etilishi majburiy bo‘lgan vazifa | specialist in professional activities |
| Kommunikativ **kompetentlik** | ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish | to be able to communicate sincerely with all participants of the educational process, including students, to listen to them, to have a positive impact on them |
| **Kompetentlik** | (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqoridarajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish. | ("competence") — the effective use of theoretical knowledge in practice, the ability to demonstrate the highest level of professionalism, skill and talent. |
| **Kreativ kompetentlik** | pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish | critical and creative approach to pedagogical activity, the ability to demonstrate their creative skills |
| **Kreativlik** | (ingl. “create ” – yaratish, “creative ” – “yaratuvchi”, “ijodkor”) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati | (creative "create", "creative" — "creator", "creator") — the creative ability of the individual, which characterizes the readiness to produce new ideas and is part of the talent as an independent factor |

| | | |
|---|---|---|
